

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Transport fakul'teti



"AVTOMOBILLARNI AVTOMATLASHTIRISH"

fanidan

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

NAMANGAN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI

Ro'yxatga olinchi
№
2022 yil. « »
Namangan
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 42
« 05 » 10 2022 y.

TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Q.Inoytov
« 05 » 10 2022 yil

Transport faku'teti

“TRANSPORT LOGISTIKASI” KAFEDRASI

H.Ataxonov, A.Ustaboyev, X.Soliyev, S.Temirov

Avtomobillarni avtomatlashtirish

Namangan

Avtomobil transportini avtomatlashtirish o'quv-uslubiy majmua 5310500 –
Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: Transport logistikasi kafedrası katta o'q. H.
Ataxonov,
Transport logistikasi PhD katta o'qituvchisi
A.Ustaboyev,
Transport logistikasi kafedrası PhD. dots.
X.Soliev
Qishloq xo'jaligini mexnizatsiyalash kafedrası
PhD dots. S.Temirov

Taqrizchi: Transport logistikasi kafedrası
t.f.n.A.Normirzayev

O'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-uslubiy
kengashining _____ 2022-yil yig'ilishida (___-sonli majlis bayoni) ko'rib
chiqildi va foydalanishga tavsiya etildi.

(ro'yhat raqami №____)

MUNDARIJA

I.	O'QUV MATERIALLAR	
1	Kirish. Aatomobil transportini avtomatlashtirish fanning mazmuni va maqsadi	
2	Avtomobil sanoatini rivojlanish dinamikasi	
3	Avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablarni o'sish dialektikasi	
4	Avtomobil dvigatelini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini	
5	Dizelli dvigatellarni avtomatik yonilg'i ta'minlash tizimi	
6	Avtomobil transmissiyasini avtomatlashtirish	
7	Avtomobilni o'rnidan qo'zg'alganda avtomatik ilashish muftasi sozlash momentining boshqarish tizimi	
8	Avtomobillarni avtomatlash uzatmalar qutisi	
9	Uzatmalarni qo'shishda avtomatlashgan tizini ishlashi	
10	Avtomobilni aktiv xavfsizligini avtomatik tizimi	
11	Mexanik datchik yordamida blakirovkalanishga qarshi sozlash tizimi	
12	Avtomobil osmasini avtomatik sozlash usullari	
13	Rul boshqarmasini avtomatlashtirish tizimlari	
14	Avtomobillarni passiv xavfsizligini avtomatlashgan tizimi	
15	Transport vositalarini bortli ma'lumotlar tizimi	
II.	TAJRIBA MASHG'ULOT MATERIALLARI	
III.	MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI	
VI.	GLOSSARIY	
V	ILOVALAR	
4.1	Fan dasturi	
4.2	Ishchi dastur	
4.3	Baholash mezonlari	
4.4	Testlar	
VI.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	

KIRISH

«Avtomobillarning avtomatlashtirish» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasi ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarni o'qitishning xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan ilg'or pedagogik texnologiya qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv – uslubiy majmuaning tarkibi kirish, avtomobil transportini avtomatlashtirish fanini tashkil qilish o'qitish texnologiyasining kontseptual asoslari xamda ma'ruza va tajriba mashg'ulotlarni o'qitish texnologiyalaridan tashkil topgan.

O'quv – uslubiy majmuada avtomobil transportini avtomatlashtirish, avtomatika datchiklari, relelari, mantiqiy, funktsional elementlari, kuchaytirgich va ijro mexanizmlari, roslagichlari va avtomobilni ishchi mexanizmlarini avtomatlashtirishning kontseptual asoslari hamda ma'ruza, amaliy va tajriba mashg'ulotlarini o'qitish texnologiyalaridan tashkil topgan.

O'quv – uslubiy majmuada quydagi asoslari bo'limida Avtomobil transportini avtomatlashtirish kursida avtomobilning dvigateli uning transmissiya qismining avtomatlashtirishdagi roli, avtomobilga turli xil elektron datchiklarni ahamiyati va ushbu kursni o'qitishning dolzarbligi asoslangan. O'quv soatlarining mavzular bo'yicha taqsimlanishi hamda kursning asosiy mazmuni ochib berilgan.

SHuningdek, o'quv – uslubiy majmuasini ishlab chiqishda qo'llanilgan asosiy qoidalari: ta'lim usuli va texnikasi; tashkil qilish shakli, vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat qilish usullari va vositalari; baholash va nazorat qilish tartiblari yoritilgan.

Fanni o'qitish texnologiyasi quyidagi tartibda ishlab chiqilgan.

- Ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishda ko'prok ko'rgazmali, muammoli, informatsion va tematik shakllariga e'tibor qaratilgan.

- Tajriba mashg'ulotlarini olib borishda muammoli savollarni guruxlarga bo'lingan xolda muxokama qilish, individual tarzda ishlash, muammoli vaziyatni keys-stadi usulidan foydalanib nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar va bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgan.

- amaliy mashg'ulotlarni olib borishda muammoli savollarni guruhlariga bo'lingan holda muhokama qilish, individual holda ishlash, sinkveyn, BBB va shunga o'xshash o'qitish hamda didaktiv vositalardan foydalanildi.

Ushbu o'quv – uslubiy majmuasi barcha erusti transport tizimlarga tegishli oliy o'quv muassasalarida «Avtomobil transportini avtomatlashtirish» kursiga tegishli texnik vositalari bilan jixozlangan auditoriyalarda o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, ushbu kursni o'qitadigan o'qituvchilar uchun mo'ljallab tuzilgan.

I.1. «Avtomobillarning avtomatlashtirish» fanining asosiy mazmuni

O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimining tubdan isloh qilishni asosiy maqsadi va vazifalarini hamda uning yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu tarixiy xujjatlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kadrlar tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir qilayotganligini bevosita ishtirokchisi va guvohi bo'lib turibmiz. Xususan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning uchinchi bosqichi- erishilgan yutuqlar bosqichi deb qabul qilindi. Sifatli kadrlar tayyorlash o'quv mashg'ulotlarining barcha shakllarini to'g'ri rejalashtirish va darslarni sifatli o'tkazish bilan chambarchas bog'liqdir bu o'z navbatida o'qitishni zamonaviy pedagogik texnologiya talablariga mos ravishda olib borishni talab qiladi.

Istiqloлга erishgan Respublikamiz iqtisodiyotini ko'tarishda asosiy tarmoqlardan biri Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishdan unumli foydalanish va xosildorlikni yuqori ko'rsatkichga ko'tarishdan iborat. Buning uchun Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani yuqori malakali mutaxassislar hal qiladi.

Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini uzluksiz takomillashtirish hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish hisobiga mutaxassislarning bilim sifatini oshirish ushbu muammolarning hal qilishning asosiy yo'nalishidir.

Keyingi yillarda ta'lim olayotgan har bir talaba o'quv fanlaridan uslubiy majmuaga ega bo'lishi, ularning chuqur bilim olishlariga imkoniyatni yanada oshiradi. SHu bilan birga ushbu o'quv –uslubiy majmuasidan oqilona foydalanish uchun o'rganiladigan har bir mavzu hajmini slayd materiallari, test, tayanch so'z va iboralar hamda nazorat savollari shakllarida talabalarga etkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu o'quv fanining maqsadi avtomobil transportini avtomatlashtirishning umumiy masalalari, avtomatika vositalari va elementlarining turlari, ularni ishlash printsiplari, elektrik va noelektrik kattaliklari, axborot o'lchash tizimlari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilimlar darajasi bilan ta'minlashdir.

Fanning asosiy vazifasi talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini avtomobillarni avtomatlashtirish jarayonlarida qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.

Avtomobillarning avtomatlashtirish» fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarini o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishning kontseptual qoidalar

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar oliy ta'lim tizimi o'kuv jarayonlari uchun ham yangi talablarni keltirib chiqarmokda. SHunday talablardan biri o'kuv jarayonida ilg'or pedagogik va ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Ta'lim jarayonida pedagogik va ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchida etarli darajada bilim, malaka va ko'nikmalarni xosil qilish asosida tinglovchilarda erkin va mustaqil fikr bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. Ta'lim jarayonlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchining shaxsini xurmat qilish, har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkoniyat yaratish, ijod bilan shug'ullanishi va o'z-uzini rivojlantirishga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratish orqali tinglovchini shaxs sifatida mustaqil fikrlashga undaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida xam o'kuv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish ko'p marta takrorlab o'tilgan. Bularning barchasi «*Avtomobillarningi avtomatlashtiri*» maxsus kursi bo'yicha o'kuv jarayonini texnologiyasini ishlab chiqishga sabab bo'ldi. Ushbu kurs bo'yicha o'kuv jarayonining texnologiyasini ishlab chiqishdagi asosiy kontseptual qoidalar quyidagilardan iborat:

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'lim jarayonida qatnashuvchi barcha sub'ektlarning keng qamrovli rivojlanishini kuzda tutadi. Bu jarayonda tinglovchi o'z uquv faoliyatining sub'ekti sanaladi va pedagog bilan xamkorlikda yagona ta'lim jarayonini tashkil o'rilishda o'atnashadi hamda har bir shaxsning erkin fikr bildirishiga imkon yaratiladi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tuliqlilik, tizimli yondoshuv va o'zaro bogliqlikda kabi belgilarini qamrab olishi kerak.

Faoliyatli yondoshuv. Faoliyat shaxsni rivojlantirishdagi eng muxim va xal o'iluvchi vosita - asos xisoblanadi. SHu sababli ta'lim oluvchi shaxsning mustao'il fikrlashi uchun zarur sifatlarni shakllantirishda uning faoliyatini intensivlashtirish va faollashtirish, o'quv jarayonida uning barcha imkoniyatlarini, sifatlarini namoyon etishiga, qarama-qarshi yoki monand fikr aytishiga sharoit yaratish lozim.

Dialog yondoshuv. Ta'lim jarayonining o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqat shaklida tashkil kilinishini va ularning o'zaro xamkorligi, psixologik yakdilik muxitini yaratishni taqoza kiladi. Dialogik yondoshuv asosida tashkil qilingan darsda ko'rilayotgan masalaning mohiyatiga etib borish, tushunish, anglash va kerak bo'lsa yangi fikrlar bilan to'ldirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xamkorlikdagi ta'limni tashkil kilish. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini demokratlashtirish, tenglik, o'zaro xurmat, xamkorlik, o'zaro yordamga asoslangan xolda, faoliyat mazmunini, maqsadini va erishilgan natijalarni xamkorlikda baholaydi. Asosiy tamoillari: guruxga umumiy topshirik, umumiy rag'batlantirish, o'zining va guruxning boshqa a'zolarining natijalariga mas'uliyat, faoliyat xamkorligi va natijaga erishish uchun teng imkoniyat yaratish.

Muammoli ta'lim. Muammoli darsning asosiy maqsadi baxs va munozara asosida ishtirokchilarning yangi, mustaqil fikrlarga kelishi, ularning turli vaziyatlarni ilmiy va amaliy tahlil etish orqali o'z fikrlarini aytib berishga urgatish bo'lganligi sababli, tinglovchi shaxsida erkin, mustaqil fikrlashni shakllantirish vositasi xisoblanadi. Muammoli dars mantikiy fikrlashni, ilmiy mushoxoda kilishini, echimlarni amaliy faoliyatga ijodiy qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradi va shakllantiradi,

Yangi vosita va usullarni kullash. Ta'lim jarayonida komp yuter va informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ma'lumotlarni ko'rgazmali shaklda etkazib beradi.

“Avtomobillarning avtomatlashtirish” maxsus kursining maqsadi, vazifalari, xajmi va mazmuniga asoslangan xolda ta'lim usuli va texnikasi; tashkil kilish shakli; vositasi; kommunikatsiya usullari; berilgan ma'lumotlarni nazorat kilish usul va vositalari; baholash va nazorat kilish tartiblari aniklandi.

Ta'lim usuli va texnikasi. Baxs-munozara, muammoli usul, «Akliy xujum» usuli, Insert, T-sxema, Venn diagrammasi, Keys-stadi, ma'ruza (kurgazmali, tematik, muammoli, informatsion).

Ta'limni tashkil kilish shakli. Jamoa va guruxlar bo'yicha, dialog va polilogga asoslangan, o'zaro suxbat, xamkorlikda va bir-birini o'qitish.

Ta'lim vositasi. Darslik, ma'ruza matni, masalalar tuplami, kodoskop, grafikli chizmalar, komp yuterli va informatsion texnologiyalar.

Kommunikatsiya usullari. Bevosita o'qituvchi va o'kuvchi o'rtasidagi tezkor teskari (karama-karshi) aloqaga asoslanadi.

Berilgan ma'lumotlarni nazorat kilish usul va vositalari. Kuzatish, blits-so'rov, joriy, oralik va yakuniy nazorat natijalarini tahlil kilish asosida tashxis qilish.

Boshqarish vosita va usullari. O'kuv mashg'ulotlari texnologik karta shaklida rejalashtirilgan, unda o'kuv jarayonining asosiy bosqichlari, kuriladigan masalalari va ularni nazorat kilish (joriy, oralik va yakuniy) tartiblari aniq ko'rsatilgan.

Baholash va nazorat kilish. har bir o'kuv mashg'uloti jarayonidagi o'qish natijalarini (o'kuv topshiriqlarni bajarishi va testlarni baholash, har bir o'kuv mashg'ulotdagi tinglovchining o'kuv faoliyati reytingini baholash) hamda butun maxsus kurs davomidagi (har bir tinglovchining joriy, oralik va yakuniy natijalarini reyting tizimi orqali baholash) natijalarni baholash.

«AVTOMOBILLARNING AVTOMATLASHTIRISH» FANINING MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARINI O'QTISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

1 - Ma'ruza: Kirish. Avtomobil transportini avtomatlashtirish fanning mazmuni va maqsadi.

REJA:

1. Kirish. Avtomatik nazorat qilinadigan kattaliklar guruxi va asosiy ko'rsatkichlari.
2. Teploenergetik, mexanik, elektroenergetik, fizik va kimyoviy ko'rsatkichlar guruhi.
3. Mutaxassislik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy talablari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- avtomatika haqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi;
- kursning asosiy vazifasini biladi;
- avtomatik nazorat qilinadigan kattaliklar haqidagi tushunchaga ega bo'ladi va uning asosiy ko'rsatkichlarini bilib oladi;
- teploenergetik, mexanik, elektroenergetik, fizik va kimyoviy ko'rsatkichlar guruhining turlari bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar

Avtomatik nazorat qilinadigan (ANQ) kattaliklar guruxi va asosiy ko'rsatkichlari.

ANQ teploenergetik ko'rsatkich guruhi, ANQ mexanik ko'rsatkichlar guruhi, ANQ elektroenergetik ko'rsatkichlar guruhi, ANQ fizik ko'rsatkichlar guruhi, ANQ kimyoviy ko'rsatkichlar guruhi, Avtomatikaning elementlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.

Ilova 1

MA'RUZA, AMALIY VA TAJRIBA MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

№	Ma'ruzalar nomi	№	Tajriba mashg'ulotlari nomi
1,	Kirish.Avtomobil transportini avtomatlashtirish fanning mazmuni va maqsadi		
2	Avtomobil sanoatini rivojlanish dinamikasi	1	Avtomobil transportini avtomatlashtirishni o'rganish
3	Avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablarni o'sish dialektikasi		
4	“Avtomobil transportini avtomatlashtirish” haqida tushuncha	2	Avtomobillarni elektr va elektron jixozlarini tekshiruvchi asbob-uskunalarini ishlashini o'rganish
5	Avtomobil dvigatelini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini	3	Avtomobil dvigatelini avtomatlashtirilgan boshqarishini o'rganish
6	Avtomobil transmissiyasini avtomatlashgan uzatmalar qutisi	4	Avtomobil transmissiyasi avtomatik uzatmalar qutisini
7	Transport vositalarini bortli ma'lumotlar tizimi	5	Transport vositalarini bortli

			ma'lumotlar tizimini ishini o'rganish
8	Transport vositalarida qo'llaniladigan datchiklar	6	Transport vositalarida qo'llaniladigan datchiklarni ishini o'rganish
9	Avtomatikaning parametrik datchiklari		
10	Avtomatikaning harorat datchiklari		
11	Avtomatika relelari va ularning klassifikatsiyasi		
12	Avtomobilni aktiv xavfsizligini avtomatik tizimi	7	Avtomobilni avtomatik faol xavfsizlik tizimi ishini o'rganish
13	Avtomobillarni passiv xavfsizligini avtomatlashgan tizimi	8	Avtomobilni avtomatik passiv xavfsizlik tizimi ishini o'rganish

Fanning maqsadi - Avtomobil transportini avtomatlashtirishning umumiy masalalari, avtomatik vositalari va elementlarning turlari, ularni ishlash printsiplari, elektr va noelektr kattaliklar, axborot oluvchi tizimlar bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilimlar bilan taxminlashdir.

Fanning vazifasi – Talabalar ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini avtomobilning avtomatlashtirishda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.

Fanning yaratilish tarixi.

Avtomobilda turli sensorlar, elektr motorlar va tartibga soluvchilarning soni ortib borayotgani sababli simlar tarmog'i uzaytirilmoqda. SHunday qilib, 1960 yilda yengil avtomobilini elektr tizimi simlari 200 metr bo'lsa, hozirda u oshishi bilan ortdi va uning umumiy og'irligi 50 kg ga etdi. Bundan tashqari, u 2000 ta kontakt qo'shuvchiga ega bo'ldi, shohlari, saqlagichlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ularning sonining har 10 yilda ikki barobar ko'paygani taxmin qilinmoqda.

Bu, uni sotishda ko'p muammolarga sabab bo'ladi, uni sotuvdagi naxsi, o'lchamlari, og'irligi, moslashuvchanligi, dizayn, ishlab chiqarish, ishonchiligi va muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq ko'plab boshqariladigan tizim muammolarni keltirib chiqaradi.

SHu sababli, ko'pchilik ekspertlar ushbu tizimlarni tashkil qilish uchun butunlay yangi printsiplarga muhtoj ekanligiga ishonishadi. Taklif qiladigan usullardan biri - ko'p hollarda, bir nazariy jihatdan bitta kanal (shina) o'nlab simlarni almashtirishi mumkin.

Zamonaviy avtomobilni ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar birinchi navbatda davlat tomonidan, avtomobil oluvchi egasiga, avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan amalga oshiriladi. Davlat avtomobilni ishlab chiqarishda fuqarolar uchun xavf tug'dirmaydigan va atrof muhitni haddan tashqari ifloslantirmasdan ishlashini ta'minlovchi avtomobillar ishlab chiqadi.

Avtomobilning egasi, unda yo'lovchilarni yoki yukni juda tez va ishonchli qilib manzilga yetkazish, imkoniyat darajada eng kam xarajat bilan xarakatlanishini istaydi. SHu bilan birga, zamonaviy avtomobil ko'p hollarda mulk egasi tomonidan faqat transport vositasi sifatida emas, balki uning tashqi qiyofasi estetik zavq bag'ishlash, foydalanish qulayligi, aerodinamik xolati yaxshiligi ko'rinishi yuqori darajada bo'lishi va boshqalar. Avtomobilning egasi, unda yo'lovchilarni yoki yukni juda tez va ishonchli qilib manzilga yetkazish, imkoniyat darajada eng kam xarajat bilan xarakatlanishini istaydi. SHu bilan birga, zamonaviy avtomobil ko'p hollarda mulk egasi tomonidan faqat transport vositasi sifatida emas, balki uning tashqi qiyofasi estetik zavq bag'ishlash, foydalanish qulayligi, aerodinamik holati yaxshiligi ko'rinishi yuqori darajada bo'lishi va boshqalar.

Avtomobil ishlab chiqaruvchisi davlat talablarini inobatga olgan holda, avtomobil dizayni kelajakda egasining hohishiga qarab moslashishga intiladi. Davlat avtomobilni fuqarolar uchun xavf tug'dirmaydigan va atrof muhitni haddan tashqari ifloslantirmasdan tashvishni etiborga oladi.

Avtomobil ishlab chiqaruvchisi davlat talablarini inobatga olgan holda, avtomobil dizayni kelajakda egasining hohishiga qarab moslashishga intiladi. Ishlab chiqarish bosqichida ishlab chiqaruvchi dizayni uni kilimatik joylashuvini texnologik salohiyatiga, mahsulot patenti

tozaligiga, ishlab chiqarishning minimal narxiga va boshqalarga yetkazish uchun talablarni qo'yadi, natijada ishlab chiqarilgan avtomobillarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Avtomobilni ish samaradorligini oshirish uni yaxshi ishlashini ta'minlash maqsadida, unga qo'yiladigan talablarga asosanib yangi avtomobillar avtomatlashtirib uni ish faoliyatini yaxshilashlaydi.

Avtomatika faninig hozirgi kundagi ahvoli

Avtomobilning elektron boshqaruv tizimlari ikki turga bo'linadi: avtomobil harakati xavfsizligini ta'minlash hamda boshqaruvchanligini oshiradi va ergonomisini yaxshilash. Masalan, avtomobilni ishlashini nazorat qilish xaydovchiga uni boshqarish va agregat, qismlari ishlashi haqida ma'lumot olish haydachining ishini osonlashtiradi. Elektron dvigatellarni boshqarishda tizimlari orasida dvigatelning ishonchli ishlashi va yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan elektoron tizimdir, dvigatelni o't oldirish va ishga tushirish hamda boshqa transport vositasida avtomatlashgan.

Bortli ixtisoslashtirilgan transport vositalar haydovchilar uchun zarur bo'lgan turli xil ma'lumotni ekran orqali bajaradi; bu avtomobilning komforini oshiradigan tizim; navigatsiya tizimlari; o'g'rilik qarshi vositalar.

Mahalliy tarmoqlar JPS texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar uzatish tizimlarini ko'paytirmoqda. Ular avtomobildagi simlar, aloqa va aloqalarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Fanga qo'yiladigan talablar.

Tizim texnik qurilma tomonidan nazorat qilinsa, u avtomatik tizim deb ataladi. Tizimni boshqarishda inson ishtirok etsa, u avtomatlashtirilgan tizim deb ataladi. Avtomatik nazorat tizimi (ANT): avtomobilni boshqarishda tizim yoki tashqi atrof-muhit holati haqidagi axborotni yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan qurilmalar to'plami.

Fanning maqsadi talabalarga avtomobillarni avtomatlashtirishdagi tajribalarga asoslanadi. SHu bilan birga avtomobilni avtomatlashtirish jarayonlari o'zining shunday maxsus xususiyatlariga ega, bu xolda tanlangan texnik vositalar va elementlar ma'lum texnologik talablarga javob berishi kerak.

Avtomatikaning texnik vositalariga nazorat axborotlarini qabul qilish, uzatuvchi, o'zgartiruvchi, saqlovchi, programmalashtirilgan axborot bilan solishtiruvchi, buyruq axborotni shakillantiruvchi xamda texnologik jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi quydagi uskunalar va texnik qurilmalar kiradi; datchiklar, relelar, kuchaytirgichlar, logik (mantiqiy) elementlar, rostlagichlar, stabilizatorlar, ijro mexanizmlar va boshqalar. Bunday texnik vositalar avtomatikada o'lchov o'zgartirgichlar deb xam yuritiladi.

**AVTOMATIK NAZORAT QILINADIGAN KATTALIKLAR VA
KO'RSATKICHLAR**

Teplo-energetik	Elektro-energetik	Mexanik	Kimyoviy	Fizikaviy
Bosim	O'zgarmas tok	Burchak tezlanish	Konsentratsiya	Namlik
Harorat	O'zgaruvchan tok	Deformatsiya	Kimyoviy tuzilishi	Elektr o'tkazuvchanli
Sath	Aktiv quvvat	Kuch	Kimyoviy tarkibi	Zichlik
Sarf	Reaktiv quvvat	Aylanish momenti	Yumshoqlik	Ėritilganlik
	To'la quvvat	Detallar soni		
	Quvvat koeffitsienti	Materiallar qattiqligi		
	CHastota	Tebranish		
	Kuchlanish	Massa		
		Izolyatsiya qarshiligi		

AVTOMATLASHTIRISH

Ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini odam ishtirokisiz bajaradigan texnik vositalarni joriy etish demakdir. Bunda boshqarish funksiyasini avtomatik qurilmalar boshqaradi.

Bajaradigan vazifasiga ko'ra


Avtomatik nazorat	Avtomatik boshqarish	Avtomatik rostdash	Avtomatik himoya
Texnologik jarayon haqida operativ ma'lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uni qayta ishlash uchun kerakli bo'lgan sharoitni ta'minlaydi	Texnologik jarayonda ayrim ishlarni ketma-ketlikda avtomatik ravishda bajarilishini va boshqaruv ob'ektiga nisbatan bo'ladigan ta'sirlarni aniq ketma-ketligini ishlab чиқишдан иборат	Texnologik jarayonlarning kerakli ko'rsatkichlarini avtomatik rostlovchi asboblarda yordamida talab qilinadigan sathda saqlanishini nazarda tutadi. Bu holda avtomatik rostdash sistemasini (ARS) to'g'ri ishlashini nazorat qiladi	Avtomatik nonormal va halokat holatlarida qo'llaniladi. Himoya vositalari texnologik jarayonni to'xtatib yoki avtomatik ravishda ushbu holatlarni chetlashtirishga xizmat qiladi
Avtomatik signalizatsiya			
Avtomatik axborot yig'ish			Nonormal holat
Avtomatik saralash			Halokat holati
Avtomatik o'lchash			

Avtomatik elementlarni bajarishi mumkin bo'lgan funksiyalari.

Avtomatika elementlari tizimning eng asosiy qismi bo'lib, quyidagi funksiyalardan birini bajaradi:

- nazorat qilinayotgan yoki rostdanayotgan kattalikni qulay ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (birlamchi o'zgartirgich - datchiklar);
- bir energiya ko'rinishidagi signalni boshqa energiya ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (elektromexanik, termoelektrik, pnevmoelektrik, fotoelektrik va xakozo o'zgartirgichlari);
- signal tabiatini o'zgartirmasdan uning kattaliklarini o'zgartirish (kuchaytirgichlar);
- signalning ko'rinishini o'zgartirish (analog-raqam, raqam analog o'zgartirgichlari).
- signalning formasini o'zgartirish (taqqoslash vositalari),
- mantiqiy operatsiyalarni bajarish (mantiqiy elementlar),
- signallarni taqsimlash (taqsimlagich va kommutatorlar),

- signallarni saqlash (xotira va saqlash elementlari),
- programmali signallarni hosil qilish (programmali elementlar),
- bevosita jarayonga tahsir qiluvchi vositalar (ijrochi elementlar).



Faollashtirish savollari

1. Nima uchun avtomobil transportini avtomotlashtirish lozim ?
2. Avtomatika fani nimani o'rganadi?
3. Texnika taraqqiyotida birinchi qurilma qachan, qaerda va kim tomonidan tayyorlangan?
4. Avtomatika deganda nimani tushunasiz va uning ma'nosi nima?
5. Polzunov bug' mashinasi qachon yaratilgan va uni avtomatikaga nima aloqasi bor?
6. Avtomatika fanining yo'nalishlarini ayting?
7. Xorijdan keltirilgan texnikalar nima uchun yuqori malaka talab etadi?
8. Avtomatlashtirishda nima uchun avtomobildagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga tayanadi?
9. Avtomatikaning texnik vositalari nimalardan iborat?
10. Avtomobilni avtomatlashtirish necha davrga bo'linadi va ularni aytib bering.
11. Avtomatik nazorat qilinadigan kattalik va ko'rsatkichlar necha guruhga bo'linadi va ularni aytib bering.
12. Nazorat qilinadigan kattaliklar bilan o'zgartirichlarning qanday bog'liqligi bor.
13. Avtomatik himoya va nazorat nima uchun ishlatiladi.
14. Avtomatika elementi deb nimaga aytiladi va u qanday strukturaviy belgilanish signallaridan iborat.
15. Avtomatika elementining bajarishi mumkin bo'lgan funktsiyalari nimalardan iborat.

2 - Ma'ruza: Avtomobil sanoatini rivojlanish dinamikasi.

REJA:

- 1.O'zbekiston va jaxon avtomobilsozligi.
- 2.Avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablar va me'yoriy- huquqiy hujjatlar.
- 3.Avtomobil konstruksiyalarining rivojlanish tarixi.
- 4.Avtomobil transportining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojidadagi ahamiyati.
- 5.Avtomobil transporti samaradorligini oshirish masalalari.
- 6.“Avtomobil transportini avtomatlashtirish” fanini o'qitishdagi mavjud muammolar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- o'zbekiston va jaxon avtomobilsozligi haqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi;
- kursning asosiy vazifasini biladi;
- avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilib oladi;
- avtomobil konstruksiyalarining rivojlanish tarixi bilan tanishadi.


Tayanch so'z va iboralar

Avtomatik nazorat qilinadigan (ANQ) kattaliklar guruxi va asosiy ko'rsatkichlari.

Avtomobil konstruksiyasi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jaxon avtomobilsozligi, o'zbekiston avtomobilsozligi, transporti samaradorligini oshirish, Avtomatikaning elementlari.

O'zbekistonda avtomobillar ishlab chiqarish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, I.A.Karimov 1992 yil Janubiy Koreya davlatiga ilk safarida DAEWOO Publik Motors avtomobil ishlab chiqarish kompaniyasi bilan tanishuvidan so'ng shu yilning iyul oyida hukumatimiz va «DEU» korporatsiyasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. SHukndan so'ng 1993 yil Andijon viloyatini Asaka shahrida Tiko, Damas, Neksiya yengil avtomobillarini ishlab chiqaruvchi zavod qurilishi boshlandi va 1996 yil iyul oyida zavod konveerida birinchi avtomobil yig'ildi va avtomobil zavodiga asos solindi. Hozirgi kunda «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi zavodida yuqorida keltirilgan avtomobillardan tashqari Matiz, Dons va Lasetti avtomobillari ishlab chiqarilib respublikamizda va xorijiy davlatlarda ekspluatatsiya qilinmoqda.

O'zbekiston avtosanoatining rivojlanish bosqichlari



Asaka shahrida "UZ-DAEWOO" zavodining qurilishi bilan O'zbekiston dunyodagi o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lgan 28-davlatga aylandi.

"UZ-DAEWOO" - bu Markaziy Osiyodagi birinchi avtomobil ishlab chiqarish kompaniyasidir. Zavod jahon standartlari talablariga javob beruvchi o'ta zamonaviy texnika bilan jihozlangan bo'lib, quvvati umumiy hisobda yiliga 200000 avtomobil (o'rta sinfli NEXIA avtomobillari-100000 dona, TICO avtomobillari-50000 dona, DAMAS avtomobillari-50000 dona) ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Samarqand shahrida O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi "Samkochavto" zavodidan "UZOTOYOL" kichik turkumdagi avtobuslar (OTOYOL-M23, M24, M29, M50) va ixtisoslashgan yuk avtomobillari (OTOYOL-35.9, 65.9, 85.12 va boshqalar) ishlab chiqarilib, ekspluatatsiya qilina boshlandi.

Avtomobil konstruktsiyasini turli xil (yillar) xolatlarda o'tishi

1. Avtomobil konstruktsiyasida xavfsiz xarakatlanishni hisobga olish (60-chi yillardan)
2. Yonilg'i tejakorligi (70 - chi yillar yonilg'iga etibor)
3. Atrof-muxitga ta'siri (80-chi yillar o'rtasi) .

Hozirgi vaqtda xalq xo'jaligi talablarini qondirish maqsadida faqat UzDEU va Samkochavto avtomobillarigina emas, balki xorijdan Mercedes Bents, MAN, Dogan va boshqa turdagi avtomobillar keltirilib, ekspluatatsiya qilina boshlandi. Tog'-metallurgiya sanoatida o'ta og'ir yuk ko'taruvchi (75-200 t) Katerpillar 754, Yuklid 200 avtomobillari; sanoat va qurilishda og'ir yuk ko'taruvchi (8-39 t) "DEU" avtomobillari; shahar transportida o'rta va katta sig'imli DEU VS-106, Mercedes-Bents 0405 va KAROSA avtobuslari; kommunal ho'jalikda ixtisoslashtirilgan "DAEWOO" va "HYUNDAI" avtomobillari; yo'lovchi tashishda va shaxsiy transport sifatida "Dogan", "Orel", "Audi" va boshqalar shular jumlasidandir.



Nazorat savollari

1. O'zbekiston va jaxon avtomobilsozligi qanday ?
2. Avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablar va me'yoriy- huquqiy hujjatlar tushuntiring ?
3. Avtomobil konstruksiyalarining o'zgaritirsh usullarini ayting ?

4. Avtomobil transportining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojida ahamiyati qanday?
5. Avtomobil transporti samaradorligini oshirish masalalari.

3- Ma'ruza: Avtomobil konstruksiyalariga qo'yiladigan talablarni o'sish dialektikasi.

REJA:

1. Avtomobil transporti samaradorligini oshirish masalalari.
2. Avtomobil konstruksiyalarining rivojlanish tarixi
3. "Avtomobil transportini avtomatlashtirish" fanini o'qitishdagi mavjud muammolar.
4. Mutaxassislik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy talablari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Avtomobil transporti samaradorligini oshirish masalalari haqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi;
- Avtomobil konstruksiyalarining rivojlanish tarixi biladi;
- "Avtomobil transportini avtomatlashtirish" fanini o'qitishdagi mavjud muammolar bilib oladi;
- Mutaxassislik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy talablari bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar

Avtomobil transporti samaradorligini.

Avtomobil konstruksiyalarining, Avtomobil transportini avtomatlashtirish, zamonaviy talablari, Avtomatikaning elementlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari.

Zamonaviy avtomobilni ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar birinchi navbatda davlat tomonidan, avtomobil oluvchi egasiga, avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan amalga oshiriladi. Davlat avtomobilni ishlab chiqarishda fuqarolar uchun xavf tug'dirmaydigan va atrof muhitni haddan tashqari ifloslantirmasdan ishlashini ta'minlovchi avtomobillar ishlab chiqadi.

Avtomobilning egasi, unda yo'lovchilarni yoki yukni juda tez va ishonchli qilib manzilga yetkazish, imkoniyat darajada eng kam xarajat bilan xarakatlanishini istaydi. SHu bilan birga, zamonaviy avtomobil ko'p hollarda mulk egasi tomonidan faqat transport vositasi sifatida emas, balki uning tashqi qiyofasi estetik zavq bag'ishlash, foydalanish qulayligi, aerodinamik xolati yaxshiligi ko'rinishi yuqori darajada bo'lishi va boshqalar. Avtomobilning egasi, unda yo'lovchilarni yoki yukni juda tez va ishonchli qilib manzilga yetkazish, imkoniyat darajada eng kam xarajat bilan xarakatlanishini istaydi. SHu bilan birga, zamonaviy avtomobil ko'p hollarda mulk egasi tomonidan faqat transport vositasi sifatida emas, balki uning tashqi qiyofasi estetik zavq bag'ishlash, foydalanish qulayligi, aerodinamik holati yaxshiligi ko'rinishi yuqori darajada bo'lishi va boshqalar.

Avtomobil ishlab chiqaruvchisi davlat talablarini inobatga olgan holda, avtomobil dizayni kelajakda egasining hohishiga qarab moslashishga intiladi. Davlat avtomobilni fuqarolar uchun xavf tug'dirmaydigan va atrof muhitni haddan tashqari ifloslantirmasdan tashvishni etiborga oladi.

Avtomobil ishlab chiqaruvchisi davlat talablarini inobatga olgan holda, avtomobil dizayni kelajakda egasining hohishiga qarab moslashishga intiladi. Ishlab chiqarish bosqichida ishlab chiqaruvchi dizayni uni kilimatik joylashuvini texnologik salohiyatiga, mahsulot patenti tozaligiga, ishlab chiqarishning minimal narxiga va boshqalarga yetkazish uchun talablarni qo'yadi, natijada ishlab chiqarilgan avtomobillarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Avtomatika elementlari tizimning eng asosiy qismi bo'lib, quyidagi funktsiyalardan birini bajaradi

- nazorat qilinayotgan yoki rostlanayotgan kattalikni qulay ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (birlamchi o'zgartgich - datchiklar);

- bir energiya ko'rinishidagi signalni boshqa energiya ko'rinishdagi signalga o'zgartirish (elektromexanik, termoelektrik, pnevmoelektrik, fotoelektrik va xakozo o'zgartgichlari);
- signal tabiatini o'zgartirmasdan uning kattaliklarini o'zgartirish (kuchaytirgichlar);
- signalning ko'rinishini o'zgartirish (analog-raqam, raqam analog o'zgartkichlari).
- signalning formasini o'zgartirish (taqqoslash vositalari),
- mantiqiy operatsiyalarni bajarish (mantiqiy elementlar),
- signallarni taqsimlash (taqsimlagich va kommutatorlar),
- signallarni saqlash (xotira va saqlash elementlari),
- programmali signallarni hosil qilish (programmali elementlar),
- bevosita jarayonga tahsir qiluvchi vositalar (ijrochi elementlar).

Vazifasiga ko'ra avtomobillar uchga bo'linadi

1. Transport
2. Maxsus
3. Poyga

Transport avtomobillari xam uchga bo'linadi

1. Passajir avtomobillari
2. Yuk avtomobillari
3. Yuk va passajir avtomobillari.

Avtomobillarni turlanishi

- Yuk avtomobil (7 sinf, to'la og'irligi bo'yicha)
- Avtobus (uzunligi metrda)
- Yengil avtomobil (tsilindr hajmi litrada)

Engil avtomobil

Eng kichik 1,2 l (11**)
 Kichik 1,3 – 1,8 l (21**)
 O'rta 1,9 – 3,5 l (31**)
 Katta 3,5 l (41**)
 O'ta katta ko'rsatilmagan.

Avtobus

O'ta kichik 5 metr (22**)
 Kichik 6 – 7,5 (32**)
 O'rta 8 – 9,5 (42**)
 Katta 10,5 – 12 (52**)
 O'ta katta 16,5 m. (62**)

Yuk avtomobillarini indeksatsiyalash

№	Полная масса	С бортовой платформой	Обозначение автомобилей Седельные тягачи	Самосвалы	Цистерны	Фургоны	Специальные
1	до 1,2 т	13xx	14xx	15	16	17	19
2	1,2-2,0 т	23	24	25	26	27	29
3	2,0-8,0 т	33	34	35	36 —	37	39
4	8,0-14 т	43	44	45	46	47	49
5	14,0-20,0	53	54	55	56	57	59
6	20,0-40,0	63	64	65	66	67	69
7	свыше 40	73	74	75	76	77	79xx

Evropa yengil avtomobillarini klassifikatsiyalari

обозначение класса	длина, мм	назначение	примеры моделей
«А», особо малый	до 3500	общее	«Ока», «Дэу Тико», «Форд Ка», «Пежо 1 06»
«В», малый	до 3900	общее	«Таврия», «Калина», «Опель Корса», «Пежо 206», «Рено Клио»
«С», первый средний	до 4300	общее	«Лада Самара», «Фольксваген Гольф», «Рено Меган», «Пежо 307», «Форд Фокус»
«D», второй средний	до 4600	общее	Москвич 2141», «Мерседес С», «Фольксваген Пассат», «Вольво 540», «Пежо 406», «Опель Вектра»
«Е», большой	до 4900	общее	«Волга», «Мерседес Е», «Пежо 607», «Опель Омега», «БМВ» 5-серии, «Ниссан Максима»
«F», высший	более 4900	общее	«ЗИЛ-41041», «БМВ» 7-й серии, «Мерседес 5», «Лексус LS 400», «Ауди А8»
«G», первый спортивный		недорогие спорткупе	«Мазда МХ-5», «Фиат Баркетта», «Ниссан 200 5Х», «Опель Тигра», «Форд Пума»
«H», второй спортивный		дорогие спорткупе	«Порше 91 1 Каррера», «Феррари Р355», «Додж Вайпер»
«SUV1»		небольшие внедорожники	«ЛуАЗ-1301», «Сузуки Витара», «Хонда HR-V», «Джип Вранглер», «Мицубиси Паджеро Мини»
«SUV2»		большие внедорожники	«УАЗ-31512», «Рейндж Ровер», «Мицубиси Паджеро», «Мерседес О», «Линкольн Навигатор»
«MPV»		универсалы повышенной вместимости	«Лада Надежда», «Крайслер Вояджер», «Рено Эспас», «Ниссан Сирена», «Опель Зафира»

Avtomobilni texnik tavsifnomasi

Passajirlar soni
 Yuksiz og'irligi
 To'la og'irligi (maksimal ruxsat etilga)
 G'ildirak formulasi (AxV)
 O'lchamlari (uzunlig, eni, balandligi)
 Avtomobil bazasi
 Dvigatelni asosiy ko'rsatgichlari
 Transmissiyaning asosiy ko'rsatgichlari
 Maksimal tezligi
 Yonilg'i tejamkorligi xaqiqiy tsiklda

Faollashtirish savollari

1. Avtomobil transporti samaradorligini oshirish masalala qanday ?
2. Avtomobil konstruksiyalarining rivojlanish tarixi tushuntiring ?
3. "Avtomobil transportini avtomatlashtirish" fanini o'qitishdagi mavjud muammolar ayting ?
4. Mutaxassislik kadrlarini tayyorlashning zamonaviy talablari qanday.

4 - Ma'ruza: "Avtomobil transportini avtomatlashtirish" haqida tushuncha. REJA:

1. "Avtomobil transportini avtomatlashtirish" haqida tushuncha.
2. Avtomobillarni avtomatlashtirishni vazifasi, boshqaruvchi ob'ekt sifatida.
3. Avtomobil transportini avtomatlashtirishni maqsadi, avtomobilni samaradorlik: konstruksiya potentsialini amalga oshirish darajasi, ekspluatatsion va boshqalar.

4. JPS, JPR larni vazifasi, ularni imkoniyatlari va bugungi kunda tadbiq etish muammolari, avtomobillarni texnik holatini monitoringini olib borish uchun o'lchash parametrlarini sharhlash va boshqalar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Avtomobillarni avtomatlashtirishni haqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi;
- Avtomobil transportini avtomatlashtirishni maqsadi biladi;
- JPS, JPR larni fanini o'qitishdagi mavjud muammolar bilib oladi;
- avtomobillarni texnik holatini monitoringini olib borish uchun o'lchash parametrlarini sharhlash bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar

Avtomobil transporti samaradorligini.

Avtomobil konstruksiyalarining, Avtomobil transportini avtomatlashtirish, zamonaviy talablari, JPS, JPR.

Tizim texnik qurilma tomonidan nazorat qilinsa, u avtomatik tizim deb ataladi. Tizimni boshqarishda inson ishtirok etsa, u avtomatlashtirilgan tizim deb ataladi. Avtomatik nazorat tizimi (ANT): avtomobilni boshqarishda tizim yoki tashqi atrof-muhit holati haqidagi axborotni yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan qurilmalar to'plami

AVACCO Sun'iy yo'ldosh navigatsiyasi qurilmasi (GPS - qabul qiluvchi) va dasturiy ta'minot tizimidan iborat. AVACCO Bu dasturiy-apparat kompleksi tizimi, transport vositalarini ekspluatatsiyasi qilish bo'yicha aniq ma'lumotlar olish ya'niy (marshruti, har bir marshruti bo'yicha tezligi, bekor turib qolish vaqti, yoqilg'i-moy mahsulotlarini sarfi), haydovchi intizomni buzganligini aniqlaydi.

Nazorat-o'lchov tizim (NO'T): mumkin bo'lgan o'zgarishlar oralig'ida nazorat ko'rsakichlarini (parametrlar) qiymatlarini olish, ularni oldindan belgilangan qiymatlar bilan solishtirish va solishtirish natijalarini taxlil qilish hamda uzoq muddatli saqlashni ta'minlaydi.

Avtomatlashtirilgan diagnostika tizimi (ADT): ma'lum yoki noma'lum tizimning holatini shu tizimning holati bo'yicha sifatini bir butunligini kuzatish, solishtirish va ko'rib chiqiladigan ma'lum sifatlar bo'yicha (diagnoz) bir-biriga nisbatan aniqligini tizimni qismlarga ajratasdan anqlashga mo'ljallangan.

Avtomobillarning elektron tizimlarini tasniflash

Avtomobilning elektron boshqaruv tizimlari ikki turga bo'linadi: avtomobil harakati xavfsizligini ta'minlash va boshqaruvchanligini oshiradi xamda ergonomisini yaxshilash. Masalan, avtomobilni xarakat xavfsizligini nazorat qilish, uni boshqarishda yo'l qo'yilayotgan xatoliklar ya'niy xarakat vaqtida tizimlar ishni nazorat qilish avtmobil haydovchisi ishini osonlashtiradi.

Dvigatellarni elektron boshqarish, tizimlari orasida ishonchli ishlashi va yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan elektron tizimdir, dvigatelni yoqish va ishga tushirish hamda boshqa ishlar kiradi. Bortli ixtisoslashtirilgan transport vositalar haydovchiga uchun zarur bo'lgan turli xil ma'lumotli ekranga chiqarish uchun quydagilarni o'z ichiga oladi;

- avtomobilning komforini oshiradigan tizimlar;
- navigatsiya tizimlari;
- o'g'rilik qarshi vositalar.

Mahalliy tarmoqlar. (JPS) texnologiyasiga asoslangan tizimlar ma'lumotlar uzatish, ularni saqlash ko'paytirmoqda. Ular avtomobildagi simlar uzunligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin ekan. Lekin avtomobil bilan aloqani yaxshilaydi.

Bugungi kunda turli xil elektron tizimlar bilan jihozlangan avtomobillar soni sezilarli darajada oshmoqdi. Elektron va mikroprosessorlarni so'nggi yutuqlar avtomobilni ishonchliligi va

xavfsiz boshqarishni ta'minlashga yordam berdi. Zamonaviy avtomobillarning elektron tizimlarini tasniflash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **ESUA** - электронные системы управления автомобилем;
 - **ESUD** - электронные системы управления двигателем;
 - **SBSA** - специализированные бортовые системы автомобиля;
 - **LVS** - локальные вычислительные сети.
-
- **AEBT** - автомобильный электронный борттелефон;
 - **DEBT** - двигательный электронный борттелефон;
 - **IBTA** - интегрированный бортовой телефон;
 - **MXT** - местный телефонный обмен.

Avtomobilni elektron tizimi

ESUA - Системы активной безопасности и другие

ESUD - Системы впрыска и зажигания

- Электрооборудование автомобиля

SBSA - Информационная система водителя сервис функции

- Противоблокировочная система

MPS - Мультиплексная система

ESUA - активная безопасность и управление

ECM - Впрыск и зажигание


- Автомобильные электрические приборы

SBSA - Система помощи водителю сервис функций

- Автомобильная сеть обмена данными

MT - Многофункциональная

Aerodinamika





Faollashtirish savollari

1. “Avtomobil transportini avtomatlashtirish” haqida tushuncha ayting.
2. Avtomobillarni avtomatlashtirishni vazifasi, boshqaruvchi ob’ekt sifatini tushuntiring.
3. Avtomobil transportini avtomatlashtirishni maqsadi, avtomobilni samaradorlik: konstruktsiya potentsialini amalga oshirish darajasi, ekspluatatsion va boshqalar.
4. JPS, JPR larni vazifasi, ularni imkoniyatlari va bugungi kunda tadbiq etish muammolari, avtomobillarni texnik holatini monitoringini olib borish uchun o’lchash parametrlarini sharhlash va boshqalar ayting.

5 - Ma’ruza: Avtomobil dvigatelini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini.

REJA:

1. Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg’i ta’minlash tizimi qanday ?
2. Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg’i ta’minlash tizimi (boshqarish sxemasi, ishlash tamoyili, signallardan datchiklar va boshqarish signallari), yonilg’i aralashmasi tarkibini boshqarish qanday ?
3. Klapanlarni ochlash davomiyligi bo’yicha injektorni ishlashi va ularni kislorod miqdori datchigi yordamida boshqarish qanday ?
4. TSilindrlarga benzinni to’g’ridan-to’g’ri purkashi, uni afzalligi.

Aniqlashtirilgan o’quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to’la o’zlashtirgandan so’ng:

- Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg’i ta’minlash tizimi ishlashini biladi;
- Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg’i ta’minlash tizimi (boshqarish sxemasi, ishlash tamoyili, signallardan datchiklar va boshqarish signallari), yonilg’i aralashmasi tarkibini boshqarish maqsadi biladi;

- Klapanlarni ochlish davomiyligi bo'yicha injektorni ishlashi va ularni kislorod miqdori datchigi yordamida boshqarish bilib oladi;

- TSilindrlarga benzinni to'g'ridan-to'g'ri purkashi bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar

Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg'i ta'minlash tizimi.

Boshqarish sxemasi, ishlash tamoyili, signallardan datchiklar va boshqarish signallari, TSilindrlarga benzinni to'g'ridan-to'g'ri purkashi.

Dvigatel avtomobilni yuragi hisoblanib asosiy tizimidir. Dvigatelsiz harakat bo'lmaydi, shuning uchun avtomobil yo'q.

Dvigatel avtomobilni haydash uchun zarur bo'lgan mexanik energiya manbai hisoblanadi. Mexanik energiyani olish uchun boshqa turdagi ya'ni issiqlik energiyasini mexanik energiyaga dvigatelga aylantiradi (yonilg'i yoqilsh, elektr energiyasi va boshqalar). Avtomobil dvigateli energiya manbaini bevosita vaqti-vaqti bilan to'ldirilishi kerak.

Zamon avtomobillarda elektron o't oldirish tizimi qo'llanilgan bo'lib ular quydagilardan tuzilgan:

- elektron boshqaruvi blokgi (EBU);
- datchilar (tirsakli valni aylanish burchagini, drossel zaslonkani xolati haqida)
- detonatsii, (sovitish suyuqligi temperaturasi);
- induksion g'altak (umumiy yoki bir nechta g'altak xar bir tsilindrga);
- yuqori tok kuchlanishni taqsimlagich (umumiy g'altakda);
- yuqori kuchlanishli o'tkazgich;
- o't oldirish shami (svechalar).


Mikroprotsessorli boshqarish blokgi

Mikroprotsessorli boshqarish blokgi quydagi operatsiyalar uchun mo'ljallangan:

- elektromagnit forsunkani yonilg'i purkashni nazorat qilish, yoqilg'i berish momenti va kuchlanish pulsining davomiyligini shakllantirish;
- yondirish g'altagida hosil bo'lgan yuqori kuchlanishli tokini doimiy davriy ravishda taqsimlashni shakllantirish (ular 2 tsilindir uchun birma - bir o'rnatilgan);
- havo rostlagichini ishlashini nazorat qilish; elektr benzinnasosni ishini nazorat qilish;
- avariya holatida dvigatelni ishini boshqarish (boshqarish tizimi alohida elementi qismlari);
- avtomobil salonida o'rnatilgan ko'rsatgichlar panelida hosil bo'lgan nosozliklarni informatsiya shaklida uzatish (diagnostik lampa yoki rangli diodli qizil rangli fil'trli) va blok xotirasiga bog'liq uni tez ishlab chiqadi.

Boshqaruv bloki tashqi diagnostika bilan bog'langan yoki EHMga bog'langan. Elektron boshqaruv blogi (ECU) markaziy tizim hisoblanib hammasi shu tizimga bog'langan. U datchik orqali analog-raqam oladi, taxlil qiladi, solishtiradi, analog-raqamga aylantiradi (ATSP) va dasturga solishtiradi bu bajaruvchi tuzilmadir.

Elektron boshqaruv blogini blok-sxemasi rasm 5.1.




Yonilg'i sonini optimal hisoblash va svechaga uchqun berish vaqti (yonilg'i berish burchagi) mikroprotsessorli boshqaruv blogida sovitish suyuqligi haroratni datchigi va havoni kiritish tizimi, havoni sarf datchigi hamda drossel zaslonkasini xolat zaslonkasi, detonatsiya datchigi va tirsakli valni aylanishlar soni datchigi (tirsakli valni turish signal datchigi). Olingan signal ma'lumotlarni solishtirish, mikroprotsessor boshqaruv tizimi hatirasiga solishtirish va shu holatga qarab yonilg'ini optimal berish hamda yondirish burchagini o'z vaqtida aniq berish. Dvigatelni samarali va kam harajatli ishlashida, signal datchigi bergan ma'lumot aniq hamda uni taxlili muxim ahamyatga ega.

Agar qaysi bir datchik ishdan chiqsi yoki tizimdan uzilib qolsa (kontaktlar qo'shish joyi yaxshi ulanmasa) mikroprotsessor boshqaruv blogi orqali qo'shimcha qismda (*avariynyy*) ishlash uchun joylashtirilgan yuklangan bo'limga bog'liq, uni ham hotirasiga joylashtirilgan.

Dvigatel ekonom xolatda ishlashida uni ish faoliyati yomonlashadi, hamda hosil bo'lgan chiqindi gazlarni miqdori ko'payadi. Ish jarayonida mikroprotsessor blogi va uni qo'shuvchisi (*avariynom*) kontrol reji lampasi doim yonadi. Avtomobilni ekspulatsiya qilish davrida uni boshqaruv bloki ish faoliyatini ya'niy ish rejimini avariya holatini tekshirish va uni topish hamda remontga tayyorlash kerak bo'ladi.


Markaziy kiritish (monovпрыск)



1 - dvigatel tsilindri; 2 - kiritish trubkasi; 3 - drossel zaslonkasi; 4 - yonilg'i uzatish kanali; 5 - elekt sim, forsunkani boshqarish signali; 6 - xavo oqimi; 7 - elektromagnit forsunka; 8 - yondirish svechasi; 9 - yonilg'i aralashmasi.


Markaziy purkash aniq quydagi afzalliklarga ega: bu tizim juda sodda, dvigatelni ish rejimini o'zgartirishda faqat bitta forsunkani boshqariladi, karbyurator o'rniga forsunka qo'yiladi.

Схема системы центрального впрыска Mono-Jetronic



1 - purkash momenti datchik; 2 - drossel zaslonka holati datchigi (drosselʼnyy potentsiometr); 3 - havo xarorat datchigi; 4 - sovitish suyuqligi datchigi; 5 - dvigatel tirsakli valini aylanish chastotasi datchigi; 6 - kontsevoy vyklyuchatelʼ servoprivoda; 7- kislorod datchigi; elektmagnitli katushka (solenoid); 8 - xavo temperaturasini qoʻyish datchigi; 9 - setchatyy filʼtr; 10 - zapornyy klapan; 11- raspylitelʼnoe soplo; 12- smesitelʼnaya zona; 13-drosselʼnaya zaslonka; forsunkani markaziy purkash; 14-korpus; 15-bosim rostlagich; 16-obratnaya benzomagistralʼ; 17- podayushaya benzomagistralʼ.

Kiritishni xar bir tsilindrga alohida taqsimlash



Taqsimlangan kiritish tizimlarida tsilindrlar soniga mos forsunkalardan foydalaniladi, ya'ni xar bir tsilindr kiritish kollektorida joylashgan forsunkaga ega. Barcha forsunkalar yenilgi uzatadigan yenilga rampasiga birlashtirilgan.


Forsunkalarni ishlash tartibi bilan farqlanadigan bir nechta tizim mavjud:

- Bir vaqtda kiritish (Одновременный впрыск);
- Juft parallel kiritish (Порно-параллельный впрыск);
- Fazalangan kiritish (Фазированный впрыск).

Bir vaqtda kiritish. Xammasi oddiy, forsunkalar o'z kiritish kollektorida joylashgan bo'lsa xam, bir vaqtda ochiladi. Mono kiritishning takomillashgan varianti deb atash mumkin, chunki bu yerda bir necha forsunka ishlaydi, lekin, elektron blok ularni xuddi bittadek boshqaradi. Faqat xar bir forsunkada beriladigan yenilgi miqdori o'zgarishi mumkin. Bir vaqtda kiritish tizimlari sodda va ishonchli bo'ladi, lekin xarakteristikalar bo'yicha zamonaviy tizimlardan ortda qoladi.

Juft parallel kiritish. Bu bir vaqtda kiritishning takomillashgan varianti bo'lib, forsunkalar juft ochilishi bilan farqlanadi. Odatda forsunkalar ishi bitta forsunka kiritish takti oldidan, ikkinchi forsunka chikarish takti oldidan ishlaydigan kilib rostlanadi. Bugungi kunga kelib bu tizimdan foydalanilmay kuyilgan, lekin zamonaviy avtomobillarda dvigatel favqulotda holatlarda aynan shu tizimda ishlaydi. Fazalar datchigi (taqsimlash vali xolati datchigi) ishdan chiqqanda shunday qaror qabul kilinadi.

Fazalangan kiritish. O'ta zamonaviy kiritish tizimi bo'lib kiritish tizimini eng maqbul shini ta'minlaydi. Bunda barcha forsunkalar soni tsilindrlar soniga teng, taktga qarab forsunkalar ish tartibi boshqariladi. Odatda forsunka kiritish taktidan oldin ochiladi, bunda eng dvigatelni makbul ish rejimi va samarodorligi ta'minlanadi.



1 - taqsimlash valini kiritish Xolli datchigi, 2 - kiritish vali suyuqlik boshqaruv muftasi (fazovraçatelъ), 3 - taqsimlash valini kiritish jihozi, 4 - taqsimlash valini chikarish Xolli datchigi, 5- chikarish vali suyuqlik boshqaruv muftasi (fazovraçatelъ), 6 - chikarish taqsimlash vali jihozi, 7 - elektrogidravlik kiritish taqsimlash vali klapani (elektromagnitный klapan), 8 - elektrogidravlik chikarish taqsimlash vali klapani (elektromagnitный klapan), 9 - dvigatelni boshqarish bloki, 10 - sovitish suyuqligi xarorati datchigi, 11 - havoni sarfini sozlovchi signal, 12 – dvigatel tirsakli valini aylanishlar signal datchigi, 13 - moy nasos.

Faollashtirish savollari

1. Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg'i ta'minlash tizimi qanday ?

2. Benzinli dvigatellarni avtomatik yonilg'i ta'minlash tizimi (boshqarish sxemasi, ishlash tamoyili, signallardan datchiklar va boshqarish signallari), yonilg'i aralashmasi tarkibini boshqarish qanday ?
3. Klapanlarni ochlish davomiyligi bo'yicha injektorni ishlashi va ularni kislorod miqdori datchigi yordamida boshqarish qanday ?
4. TSilindrlarga benzinni to'g'ridan-to'g'ri purkashi, uni afzalligi.

6 - Ma'ruza: Avtomobil transmissiyasini avtomatlashgan uzatmalar qutisi .

REJA:

1. Zamonaviy avtomobil transmissiyasi.
2. Avtomobil transmissiyasini avtomatlashtirish maqsadi.
3. Pog'onali, pog'onasiz va gidromexanik uzatmalarni avtomatlashtirish. Gidromexanik va pog'onasiz uzatmalar.
4. Avtomatik uzatmalar qutisini boshqarish tizimi.
5. Avtomatik boshqariladigan uzatmalar qutisini ishlash tamoyili: nazorat signallari va boshqarish paramtrlari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Zamonaviy avtomobil transmissiyasi ishlashini biladi;
- Avtomobil transmissiyasini avtomatlashtirish maqsadi biladi;
- Pog'onali, pog'onasiz va gidromexanik uzatmalarni avtomatlashtirish bilib oladi;
- Gidromexanik va pog'onasiz uzatmalar bilan tanishadi.
- Avtomatik uzatmalar qutisini boshqarish tizimi bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar


Avtomatik boshqariladigan uzatmalar qutisi.

Zamonaviy avtomobil transmissiyasi, avtomobil transmissiyasini avtomatlashtirish, pog'onali, pog'onasiz va gidromexanik uzatmalarni avtomatlashtirish, gidromexanik va pog'onasiz uzatmalar.

1. Transmissiyaning vazifasi va turlari.

Avtomobil yo'lda harakatlenganda unga ta'sir etuvchi qarshilik kuchlari har doim uzluksiz va ixtiyoriy ravishda o'zgarib turadi.

Kuchlarning o'zgarishi avtomobilning tezligi, tezlanishi va yuklanishiga bog'liq bo'ladi. Qarshilik kuchlarini yengib harakatlanishi uchun dvigiteldan kelayotgan burovchi momentni o'zgartirib turish lozim bo'ladi. Bu vazifani bajarish uchun avtomobillarda kuch uzatish ishlatiladi. Demak, bu kuch uzatmasi dvigiteldagi burovchi momentni bir-necha mexanizm va qurilmalar yordamida uning qiymatini va yo'nalishini o'zgartirib avtomobilning yetakchi g'ildiraklariga uzatish uchun xizmat qiladi. Kuch uzatma divigateldan kelayotgan burovchi momentni yetakchi g'ildiraklarga uzatish bo'yicha mexanik, gidrohajmli, aralashgan (gidrotexanik, elektromexanik) turlarga bo'linadi.



6.1-rasm - Avtomobillarning kuch uzatmasi (transmissiya) turlari.

a, b, v, g-mexanik, d-gidrohajmli va elektrik

Gidrohajmli va elektrli kuch uzatmalarining tuzilishi va ishlashi.


Katta va ko'p yuk ko'taradigan karьер avtomobillarida gidrohajmli yoki elektr kuch uzatmasi qo'llaniladi. (6.1.d- chizma). Gidrohajmli kuch uzatmada gidronasos ichki yonuv dvigateling buruvchi momenti naychalarda suyuqlik bosimini hosil sarflaydi, gidromatorlar esa suyuqlik bosimini buruvchi momentga aylantirib avtomobilning yetakchi g'ildiraklariga uzatadi.

Elektr kuch uzatmasida generator ichki yonuv dvigateldan kelayotgan buruvchi momentni elektr toki hosil qilishga sarflaydi. Elektrodvigatellar esa o'z navbatida elektr tokini buruvchi momentga aylantirib, avtomobilning yetakchi g'ildiraklariga uzatadi.

Friktsion ilashish muftasining qurilmasi *mexanik, gidravlik, elektromagnit* bo'lishi mumkin. Ko'pgina yengil va yuk avtomobillarida mexanik va gidravlik yuritmalar ishlatiladi.

Elektromagnit yuritmalarni asosan yengil avtomobillarda ilashish muftasini boshqarishni avtomatlashtirishda qo'llaniladi. Ilashish muftasini boshqarishni osonlashtirish uchun mexanik (serprujinali) pnevmatik yukli vakuumli kuchaytirgichlardan foydalaniladi.

Gidravlik ilashish muftasi (gidromufta) yetakchi va yetaklanuvchi qismlarga ega. Yetakchi qism past qovushqoq ishchi moy bilan to'ldirilgan xajmni hosil qiladigan nasosli g'ildirak (6.2 a-rasm) va qopqoqdan iborat. Yetaklanuvchi qism turbina g'ildirak hisoblanadi. Nasos va turbina g'ildiraklar tashqi va ichki torlar orasida o'rnatilgan va o'zaro ular bilan ishchi suyuqlik uchun parraklararo kanallar hosil qilgan parraklarga ega. Gidromufta parraglarini odatda tekis radial qilib tayyorlanadi. Turbina g'ildirak nasos g'ildirakka juda yaqin joylashgan.



Dvigatel ishlayyogan holda nasos g'ildirak aylanayotgan bo'ladi. Uning parraklari parraklararo kanallardagi suyuqlikka kuch bilan ta'sir qilib, uni periferiyaga otadi. Suyuqlik nasos g'ildirakning parraklararo kanallaridan o'tilib chiqib, turbina g'ildirakning parraklariga uriladi va parraklararo kanallaridan o'tib, yana nasos g'ildirakning parraklararo kanallariga tushadi. Parraklararo kanallarda katta tezlik bilan va bir vaqtning o'zida nasos (yoki turbina) g'ildirak bilan birga aylanuvchi suyuqlikning yopiq aylana oqimi hosil bo'ladi (6.2 a-rasmda strelka bilan ko'rsatilgan).




Nasos g'ildiragi dvigatelni maxovik va tirsakli vali bilan birlashtirilgan. Turbina g'ildiragi esa mexanik uzatma bilan birlashtirilgan. Nasos va trubina g'ildiraklari orasida qo'zg'almas reaktiv g'ildirak joylashtirilgan. Hidrotransformator g'ildiragi og'iri uning formasi kurakli hisoblanib, suyuqlik yurishi uchun unda kanal qismi bor.

Suyuqlik nasos g'ildirak parraklaridan energiya olib, uni turbina g'ildirakka olib o'tadi va uning parraklariga kuch bilan ta'sir qilib, bu g'ildirakka burovchi momentni uzatadi. Nasos g'ildirak qanchalik tez aylansa, gidromufta shunchalik ko'p burovchi momentni uzatish mumkin. Parrakli g'ildiraklarning aylanib turgan paytida gidromuftani to'la o'zish uchun undan suyuqlikni chiqarib yuborish kerak. Buning uchun ilgarilash klapani, bak, ta'minlash nasosi saqlagich klapani bilan, to'ldirish klapani, ba'zida esa suyuqlikni sovutish uchun radiator kerak bo'ladi. Bundan gidromuftaning ishga tushirish va uzish vaqti uzoq davom etadi.


Turbina g'ildiragining aylanish chastotasi nasos g'ildiragining aylanish chastotasiga qaraganda ortib ketishi mumkin, masalan, pastga qarab harakatlanganda. Unda suyuqlikning aylanma harakat yo'nalishi teskarisiga o'zgaradi. Burovchi moment turbina g'ildiragidan nasos g'ildiragiga uzatiladi va shu bilan daigatel bilan tormozlashga erishiladi.

Elektromagnit kukunli ilashish muftasi asosiy qismga ega: qo'zg'almas korpus bilan qo'zg'atish o'rami (6.2 b-rasm), dvigatel tirsakli vali bilan ulangan yetakchi qism, uzatmalar qutisining yetakchi valiga burovchi momentni uzatuvchi yetaklovchi qism.



Avtomatik va yarim avtomatik ilashish muftasi ishga tushirish va ajratishni avtomatik boshqaruvini ta'minlaydi. Ishga tushirish va ajratish uchun signal arimavtomat ilashish muftalarida haydovchi tomonidan uzatishlar sonini o'zgartirish dastagini surilganda yoki maxsus tugma bosilganda beriladi. Avtomat ilashish muftalarida signal ilashish muftasini avtomat boshqarish tizimidan keladi.

Gidravlik muftaning shakli tuzilishi ishlashi va qo'llanilishi. Hidravlik mufta gidrodinamik kuchlarni hosil qiluvchi suyuqlikning kinetik energiyasidan foydalanishga asoslangan bo'lib u yetakchi va yetaklanuvchi qismlardan tuzilgan. Gidromuftaga suyuqlik bilan to'ldirilgan yetaklovchi g'ilof va u bilan bog'liq bo'lgan nasos g'ildiragi kiradi (6.3-chizma).



6.3-rasm. Gidromufta sxemasi.

1-nasos, 2-gidromufta asosi, 3-turbina g'ildiragi, 4-ishqalanish muftasining yetakchi diski, 5-uzatmalar qutisining birlamchi vali, 6-ishqalanish muftasining yetaklanuvchi diski, 7-salnik, 8-dvigatel startyor bilan yurgizib yuborish uchun tishli gardish, 9-dvigatel tirsakli vali.

Etaklanuvchi qismga turbina g'ildiragi kirib u ilashish nuqtasini yetakchi diski bilan birlashgan. Nasos g'ildiragi birlashgan dvigatelning tirsakli vali bilan biriktirilgan bo'lib turbinali g'ildiraklisi esa uzatmalar qutisining birlamchi vali bilan tutashgan.

Turbina g'ildiragi bilan birlamchi val nasos g'ildiragining g'ilofiga podshipniklarda o'rnatilgan. Gidromufta g'ilofi bilan yetakchi disk gupchagi orasiga salnik o'rnatilgan. Birlamchi val uchidagi shmitsaga ilashish muftasining yetakchi diski o'rnatilgan. Dvigatelni startyor bilan yurgazib yuborish uchun mufta g'ilofida tishli gardish o'rnatilgan.

Dvigatelning tirsakli vali aylanganda nasos g'ildiragining kurakchalari orasidagi suyuqlik harakatga kelib markazdan qochma kuchlar tasirida u nasos kurakchalardan doira bo'yicha otilib chiqadi va qarshisidagi turbina kurakchalariga uriladi. Suyuqlik kuraklarda ishqalib harkatlanganda ishqalish kuchi hosil bo'ladi kurakchalarni aylantiradi. Natijada birlamchi valda burovchi moment hosil bo'ladi. Suyuqlikning kurakchalar orasida aylana bo'ylab harkatlanishi hisobiga burovchi moment gidro muftaning yetakchi qismidan yetaklanuvchi qismiga o'tkaziladi.

Gidromuftaning afzalligi shundaki u burama tebranishlarni so'ndiradi, avtomobilni o'rnidan silkinmasdan qo'zg'alishi va ravon yurishi yanada yaxshilanadi. Lekin yonilg'i sarfi ko'p,

tuzilishi murakkab va og'irligi katta. Bu turdagi gidromuftalar yengil "Lasetti" katta yuk ko'taradigan BelAZ avtomobillarida va boshqa turdagi avtomobillarga o'rnatiladi.

Faollashtirish savollari

1. Zamonaviy avtomobil transmissiyasi tuzilishi qanday ?
2. Avtomobil transmissiyasini avtomatlashtirishdan maqsadi nima ?
3. Pog'onali, pog'onasiz va gidromexanik uzatmalarni avtomatlashtirish qanday amalga oshiriladi ?
4. Gidromexanik va pog'onasiz uzatmalar qanday ?
5. Avtomatik uzatmalar qutisini boshqarish tizimini tushuntiring ?
6. Avtomatik boshqariladigan uzatmalar qutisini ishlash tamoyili: nazorat signallari va boshqarish paramtrlari tushuntiring.

7 - Ma'ruza: Transport vositalarini bortli ma'lumotlar tizimi.

REJA:

1. Bortli ma'lumotli-diaagnostik tizimlari transport vositalarini harakatlanish rejimi va texnik holati haqidagi ma'lumotlarni yig'ishni, ishlov berishni, saqlashni va aks ettirishni ta'minlovchi zamonaviy avtomobilni tarkibiy qismi sifatida hamda uni o'rab turgan tashqi omillar.
2. "Haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit" tizimi.
3. Haydovchini ma'lumot tizimini blok-sxemasi.
4. Nazorat-o'lchov asboblari paneli.
5. Bort kompyutyuteri va bort nazorat tizimi.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Bortli ma'lumotli-diaagnostik tizimlari transport vositalarini harakatlanish rejimi va texnik holati haqidagi ma'lumotlarni yig'ishni, ishlov berishni, saqlashni va aks ettirishni ta'minlovchi zamonaviy avtomobilni tarkibiy qismi sifatida hamda uni o'rab turgan tashqi omillar biladi;
- "Haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit" tizimi biladi;
- Haydovchini ma'lumot tizimini blok-sxemasi bilib oladi;
- Nazorat-o'lchov asboblari paneli bilan tanishadi.
- Bort kompyutyuteri va bort nazorat tizimi bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar


Bortli ma'lumotli-diaagnostik tizimlari.

Bortli ma'lumotli-diaagnostik tizimlari, "Haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit" tizimi, Haydovchini ma'lumot tizimini blok-sxemasi, Nazorat-o'lchov asboblari paneli, Bort kompyutyuteri va bort nazorat tizimi.

Avtomobilni bortli informatsion tizimi haqida umumiy ma'lumotlar.

Ma'lumotli-diaagnostik tizimi zamonaviy yangi avtomobillarda asosiy qismlaridan biri hisoblanadi va u transport vositasi xarakatlanganda informatsiyalarni yig'adi va texnik tafsifnomasini saqlab qoladi, hamda tashqi faktorlar tasirini saqlab qoladi. Bugungi kunda tizimda "haydovchi, avtomobil, yo'l, atrof" barchasi bir butundir.

Rivojlangan ko'p davlatlarda bu tizimni yaxshi tushinadi, bunda xarakatni yaxshilash, avtomagistral yo'llarda xarakatlanish xaddan tashqari ko'payib ketganda informatsion tizimdan oqilona foydalanib transport oqimiga yo'l holati haqida xabar berishdan iborat.



1 - dv. k. moyini satxini ko'rsatuvchi signal lampasi. 2 - oyna yuvish bachogidagi suyuqlikni xajmini ko'rsatuvchi signalizator. 3 - kengayish bachogida sovitish suyuqligiga signalizator sovitish suyuqligi kam qolsa. 4 - eshik signalizatori yopilmaganda. 5 - stop-signali yoki avtomobil o'lchamlarini ko'rsatuvchi signalizator ishlamasa. 6 - oldingi tormoz kolodkasi yeyilganini ko'rsatuvchi signalizator. 7 - xavfsizlik remeni taqilmagandagi signalizator.

Har xil rivojlangan davlatlarda bu loyixani qo'llab quvatlaydi kerak bo'lsa pul bilan ta'minlaydi, chunki bu loyixa xavfsizlik nuqtai nazardan yuqori hisoblanadi, samaradorligi yuqori, ishlash xajmi yuqori, atrof muxitga zarari kam. Bazan transport tizimida bu tizimni intellektualligi xaqida gapiriladi. Masalan, AQSH va Yaponiyada bu proekt nomi (Intelligent Transportation System - ITS) ITS, xamda Yevropada – Telematic deb yuritiladi. Bu proektni infrastruktura tuzilishi yuqori va bortli elektron tizim yo'lda xarakat tizimini yaxshilayda hamda avtomobil oqimini yaxshilaydi, xaydovchi tafsiiylarini yetkazish, ogohlantiradi va hokozo.

Transport oqimini datchik orqali bilib olinadi hamda tartibga solinadi, kompyuter katta informatsiyani xaqida xabar beradi, reurslar ulangan, avtomobil xaqida kursatadi va boshqalar. Bazi bir proektlarda (Telematic) shuni kutilmoqda, informatsiya haqida, transport tizimini intellektual faoliyati xaqida xabar beradi, komplekslari telematika jixozlangan.

Bortoli kompyuter

Bortli kompyuter (avtomobil marshruti kompyuteri (AMK)) avtomobil to'g'risida xaydovchiga ma'lumot beradi, hamda avtomobilni tashqi dunyo bilan bog'laydi, navigatsiya tizimi va boshqalar. Aksariyat xollarda bortli kompyuter ma'lumotni raqamli tizimda uzatadi, uni boshqarish pult yordamida amalga oshiriladi. Qo'llashni boshlash va displey sensori grafik rangli ko'rinishda bo'ladi boshqarish dasturlashtirilgan. Bundan tashqari, portativ kommutatorlar chiqariladi va tashkillashtirilgan, avtomobil g'ildiragiga o'rnatiladi. Avtomobil qismlaridagi, tizimlaridagi ma'lumotni tegishli dastur orqali qabul qilib oladi.


Avtomobil kompyuteri set orqali internetga ulanadi. Xaydovchiga elektron pochta ochiladi. Sputnik antenaga ulanganda (direct PC) avtomobilga xabar yetkazish tezligi 440 Kb/s. Bortoli kompyuter kun va soatni aniqlaydi, yonilg'i sarfi forsunkani ishlashi va sarfini, tezlik va bosib o'tgan masofa.

Dvigatel-testeri o'lchovchi asbob (rasm 2)

Har xil datchiklar va stroboskop yordamida dvigatel va elektr jihozlarni har xil ish rejimida 50 dan ortiq parametrlarni o'lchash mumkin. Quvvat parametrlarini bilvosita aniqlashni orginal usullari qo'llaniladi.

Misol, tsindrlar bo'yicha nisbiy kompressiyani.

Kompressiya va tsindrlarni bir tekis ishlashdan tashqari, iskra ko'rsatgichlari: teshib o'tish kuchlanishi, yoy kuchlanishi, iskra (chaqmoq) (rasm 2) va boshqa ko'rsatgichlari o'lchanadi.



asm 2. Dvigatelni - tester asbobi va datchigi ko'rinishi:

1-motor-tester orqa paneli; 2-distantsion boshqarish pulti; 3-stroboskop; 4- tok datchik; 5- asbobni ulash shuniri; 6-qo'shuvchi moslama; 7- avtomobilni diagnostikaga ulash uchun ajratma (razem); 8-yuqori kuchlanish datchigi; 9-birinchi tsilindr datchigi (sanoq boshlash datchigi).


Ko'rsatgich quydagi ma'lumotlarni ko'rsatadi:

- vaqt, kun va sana;
- o'rtacha tezlik yo'nalish bo'yicha;
- vaqt yo'l;
- yonilg'ini o'rtacha sarfi marshrut bo'yicha;
- daqiqali yonilg'i sarfi;
- masofa, qancha yo'l bosib o'tilgani hamda zaxirada qancha yonilg'i qolganligi.

Agar xaydovchi marshrut bo'yicha yo'lga chiqishdan oldin yo'l haritasini uzunligini bortli tizimga kiritib qo'ysa bu yo'l bo'yicha xaydovchiga ma'lumotni avvaldan ko'rsatib turadi va manziliga qancha yo'l qolganligi xaqida xabar beradi.

Avtomobilni avtomat kontrol qilish tizimi xam ko'p tarqalga bo'lib bu ko'proq chet avtomobillarda qo'llanilgan, bu ko'praq avtomobil elektr qismlari xaqida xabar beradi. Sinash natijalariga ko'ra, marshrutli komp'yuter elektr jixozlari priborlari xaqida ko'proq ma'lumot beradi.

Avtomobilni avtomat kontrol qilish tizimi chet avtomobillarida ishlatiladi va uni funktsional imkoniyatlari ko'p – bu jixizni funktsiyasi ko'p: avtomobil tizimlarini kontrol qilish (bortovli tizimni kontroli, BTK) hamda navigatsiya funktsiyasi.



Rasm 3 Dvigatelni test ekranidagi uchqun ko'rsatgichi.



4 Raqamli mul'timetr

Mul'timetr kasbiy o'lchash asbobi bo'lib, suyuq kristall aniqlanishi 33/4 belgili ekran bilan ta'minlangan. Asbob qo'yilgan vazifalarni bajaradi:

- doimiy kuchlanishni o'lchash
- o'zgaruvchi kuchlanishni o'lchash
- qarshilikni o'lchash
- sig'imni o'lchash
- chastotani o'lchash
- diodlarni sinash
- tranzistorlarni sinash
- zanjir uzluksizligini tekshirish

Barcha avtomobilni avtomat kontrol qilish tizimi funktsiyasi AMK, qo'shimcha jixozdir, bu beshta sinfga bo'linadi (maxalliy ishlab chiqilgan AMK):

- vaqt funktsiyasi (soat, budilnik, kalendar);
- marshrutli funktsiyasi (yo'l vaqti, yo'lda turish vaqti, yonilg'ini sarfi, o'rtacha yonilg'i sarfi, barcha yonilg'i sarfi, bakda qolgan yonilg'i sarfi, qolgan yonilg'ini klometrli bashorat qilish, bosib o'tilgan yo'lni o'lchashi, o'rtacha tezlik, oniy tezlik, xarorat);
- xizmat ko'rsatish funktsiyasi dvigatel resursini ko'rib chiqish avtomobil (dvigatelni ish vaqti), filtrlarni almashtirish va yangilash vaqti, svecha, remn va boshqa ishlarni tartibga solish, AMK informatsiyasida ko'rsatilgan: dasturlash versiyasi programmalashtirilgan, sayt ssylkasi, qo'llab-quvvatlash texnik telefon va savdo bo'limi);
- diagnostik test funktsiyasi (sovitish suyuqligi xarorati xulosasi, tashqi xarorat, oniy tezlik, dvigitel tirsakli valini aylanishlar chastotasi, AB kuchlanishi, drossel zaslonka xolati (0-100%), iste'mol qilingan xavo og'irligi, sochish vaqti, o't oldirish burchagi, o't oldirish burchagini qo'yish, chiqindi gazlarni to'g'rilash SO, dvigatelni boshqarish tizimi kodi nosozliklari, matini kodlashtirishni kodi nosozliklarini ko'rish, xoto kodlarni qayta o'rnatish, tsilindrda kuch balansi testini o'rnatish, ventilyatorni past xaroratda ishlashini o'rnatish, ABni zanjirga ulanganligini ko'rish va baxo berish, ABni zichligi, hamda ABni kuchlanishini o'lchash, Xolla datchik ishlamaganda avariya xolati);
- avaria signalizatori funktsiyasi (ruxsat etilgan chegarada tashqarida bortli kuchlanish pasayganda ogoxlantirish signalini qabul qilish, dvigatel qizib ketganda, ortiqcha tezlik, tez shikastlanish extiloli, IYoDda ortiqcha aylanganda, 8 litrdan kam qolgan yonilg'ida).

Marshrut kompyuter hozirgi kunda ko'p qabul qilinganlari klassifikatsiyasi ularni avtomobil priborga joylashtirish va avtomobilni avtomat kontrol qilishda olingan ma'lumotlar ko'rish oson. Marshrut kompyuter quydagi kriteriyalarga javob berada:

- funktsiyani terib olishi: diagnostika funktsiyali mavjudligi bilan, avariya signalizatorni funktsiyasi mavjudligi bilan, xizmat ko'rsatish funktsiyasi mavjudligi bilan;
- ijro turiga ko'ra: avtomobil ishlashini soat xajmi, knopka xajmi, avtomagnitola xajmi.

8-ma'ruza: Transport vositalarida qo'llaniladigan datchiklar

REJA:

1. Datchiklarga qo'yiladigan talablar va ularning klassifikatsiyasi.
2. Dvigatel tirsakli valini aylanishlar sonini datchigi.
3. Taqsimlash val holati datchigi.
4. Sovutish suyuqligi datchigi.
5. Havoni massali sarfi datchigi.
6. Kislorod datchigi.
7. Drossel zaslonkasi holati datchigi.
8. Harorat datchigi. Detonatsiya datchigi.
9. Moylash tizimi datchigi.
10. Avtomatlashgan uzatmalar qutisi variatorli datchiklar.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- datchiklar xaqidagi asosiy tushunchaga ega bshladi:
- datchiklarga qo'yiladigan talablarni biladi:
- datchiklar klassifikatsiyasini bilib oladi:
- avtomatik datchiklarning asosiy ko'rsatkichlari bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar.

Avtomatik datchiklar, datchiklar klassifikatsiyasi, datchiklarning asosiy ko'rsatkichlari

Umumiy ma'lumotlar

Sovtish suyuqligini xaroratini datchigi dvigatel xaroratini o'lcaydi va yonilg'i uzatish xamda yondirish paytini rostlaydi.

Datchik asosan mikrosxemadan iborat, xamda xaroratni o'lchash chiqish kuchlanishdan iborat. Bu xaroratni o'lchash datchigi termostat qobig'iga joylashgan, tsilindrlar blok ulanish patrubksi joylashtirilgan, hamda havo harorati datchigi - xavo filtri qobig'iga joylashtirilgan. Barcha zamonaviy avtomobillarda, mikroprotsessorli yondirish tizimi bir xil xarorat datchigi o'rnatilgan.


Termorezistor, datchik ichiga joylashtirilgan, unda manfiy havoni harorat qarshiligi, qiziganda kuchlanish qisqaradi. Yuqori xarorat past kuchlanishni chaqiradi (70 Om agar 130 °S) datchik, agar sovitish suyuqligi past xaroratda – yuqori kuchlanish (100 kOm agar – 40 °S). EBB uzatishi DTOJ kuchlanishni stabil qilish 5 V rezistor orqali doimiy qarshilik bo'lishi, EBBni ichida joylashgan.

Sovitish suyuqligi xaroratini rostlash kuchlanish tushib ketishi hisobiga amalga oshiriladi DTOJ. Sovuq dvigatelda berilgan kuchlanish yuqori bo'lsa, past yondiriladi. Sovitish suyuqligi xarorati ko'p xarakterli boshqariladi.

Xarorat datchigi elektr raz'yom, korpus, termosezuvchi element va boshqarish (uplotnitel') iborat. Korpusda yarimsimli rezistor va elektr kontakt bor. Agar janjirda ulanish nosoz bo'lsa DTOJ, EBB qisqa vaqt ichida o'z xotirasi orqali kod raqami bilan, avtomobil salloni ichidagi

ko'rsatish lampasini yoqadi «Check Engine», nozozligi bo'yicha signal beradi. Bu vaqtda EBB bu signalni ifodalaydi DTOJ xaroratni biladi, dvigatelni ish vaqtini hisoblaydi. EBB xotirasiga solishtirish ko'radi.


Kuchlanish tushishi datchikdan chiqishi o'zgarmas tok bilan taminlashi 1,5 mA son uzatishi (mV) sovitish suyuqlikgi harorati (K), 10 soniga ko'paytiramiz. Kuchlanish tushishi datchikdan chiqishi o'zgarmas tok bilan taminlashi 1,5 mA son uzatishi (mV) sovitish suyuqlikgi harorati (K), 10 soniga ko'paytiramiz.



Datchiklar va ular nazorat qiladigan kattaliklar

Nazorat qilinadigan kattaliklar	Datchiklar turlari													
	Mexanik	Elektrik datchiklar												
		Potentsiometrik	Tenzometrik	Induktiv	Termorezistorli	Sig'im	Fotorezistorli	Elektron	Induktсион	Phezoelektrik	Termoelektri	Xoll datchiklari	Fotoelektrik	Gidravlik
1. Siljish	+	+	+	+	-	+	-	+	-	-	-	+	+	+
2. Sath	+	+	-	+	-	-	-	-	-	-	-	-	-	+
3. Tezlik	+	-	-	-	+	+	-	-	+	-	-	-	+	+
4. Tezlanish	+	-	+	-	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-
5. Kuch	+	+	+	+	-	+	+	+	+	+	-	+	-	-
6. Bosim	+	-	+	+	-	+	-	+	-	+	-	+	-	+
7. Moment	-	+	+	+	-	+	+	-	-	-	-	-	+	+
8. Namlik	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-	+	-	-	-
9. Harorat	-	-	-	-	+	+	-	-	-	-	+	-	-	-
10. Sarf	-	+	-	+	-	-	+	-	+	-	-	-	-	+
11. Tebranish	-	+	+	+	-	+	-	-	+	+	-	+	-	-

Izoh: + nazorat qiladi, - nazorat qilmaydi



Faollashtiruvchi savollar.

1. Datchik deb nimaga aytiladi?
2. Datchik nima uchun ishlatiladi?
3. Mexanik o'zgartkichlar nimasi bilan xarakterlanadi.
4. Elektrik o'zgartkichlar qanday ko'rsatkichlarni o'zgartiradi.
5. Parametrik o'zgartkichlar qanday ko'rsatkichlarni o'zgartiradi.

9-ma'ruza: Avtomatikaning parametrik datchiklari.

REJA:

1. Potentsiometrik, rezistiv, tenzometrik datchiklar va ularning ish printsiplari.
2. Elektromagnit va sig'im datchiklari. Xol elementi.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Parametrik datchiklarning xaqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi:
- Rezistiv datchiklarni xaqida asosiy tushunchaga ega bo'ladi:
- Pezometrik datchiklarning xaqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi:
- Datchiklarning ishlash printsiplari xaqidagi asosiy tushunchaga ega bo'ladi:
- Elektromagnit va sig'im datchiklar bilan tanishadi.

Tayanch so'z va iboralar

Potentsiometrik datchik, rezistiv datchik, tenzometrik datchik, elektromagnit datchik, sig'im datchik, xol elementi.

Rezistor datchiklar.

Rezistor datchiklar chiziq va burchak xarakatlarini, kuch va momentlar, tebranish va vibratsiyalar, xarakat va yorug'lik kabi noelektrik kattaliklarni nazorat qilish va o'lchash jarayonlarida qo'llaniladi.

Rezistor datchiklar guruhiga potentsiometrik, ko'mir (kontaktli), tenzometrik kabi datchiklar (fotorezistor, termorezistor) kiradi. Bunday turdagi datchiklarning ish printsiplari uning aktiv qarshiligi o'zgarilishiga asoslangan bo'ladi.


Potentsiometrik datchiklar

Potentsiometrik datchiklarda nazorat qilinayotgan xarakat sezgir elementga uzatilib uning qarshiligi hisobiga o'zgaruvchan yoki o'zgarmas kuchlanishga aylantiriladi (1a-rasm).

Potentsiometrikning xarakatlanuvchi kontakti nazorat qilinayotgan xarakatga bog'langan bo'lib, ob'ektning xolati o'zgarilganda uning qarshiligi va ikkilamchi asbobdagi ko'rsatkich o'zgariladi. Ikkilamchi asbob esa nazorat qilinayotgan parametrlar birligida darajalangan. Kuchlanishning tebranishlarini ta'sirini yo'qotish maqsadida stabillashgan manbalardan foydalanish tavsiflanadi.

Potentsiometrik datchikning statik tavsifnomasini chiziqlikga yaqinlashtirish maqsadida unga muvofiq ish rejimining (1 b,v-rasm), topshiradi yoki reostatni o'rash usulini o'zgartiradi.


Agar chiqish tok yoki kuchlanish belgisi harakat yo'nalishiga muvofiqligikera bo'lsa, unga o'rta nuqtali potentsiometrdan foydalaniladi (1 d-rasm). Uning tavsifnomasi rasmda keltirilgan (1 ye-rasm)



Potentsiometrik datchiklar

Burchak xarakatlarini nazorat qilish uchun xalqasimon potentsiometrik datchiklar (1 d-rasm) va kontaktsiz datchiklar sifatida suyuqlik potentsiometrik datchiklar qo'llaniladi (1 ye-rasm).


Ilova 1



Ko'mir (kontakt) datchiklar.

Ko'mir (kontakt) datchiklarning ish printsiipi o'zining ichki elektr qarshiligi ketirilgan kuchlanish ta'sirida o'zgarishga asoslangan. Bu turdagi eng sodda datchik (2 a-rasm) grafit

disklardan yig'ilgan ko'mir ustidan iborat. Disklar orasida esa kontaktli shaybalar o'rnatilgan. Ko'mir ishining qarshiligi grafit diskarning kichik qarshiligi va disk-shayba o'tishi asosiy qarshiliklar yig'indisiga teng. Disk-shayba o'tishning qarshiligi esa o'z navbatida va shaybalar zichligiga, ya'ni bosish kuchiga bog'liq..



2 – rasm. Ko'mir datchiklarning sxemasi.


Ko'mir datchiklarning sezgirligini oshirish maqsadida ko'priksimon ulanish sxemalardan foydalaniladi (6-rasm, v). F kirish kuchi ta'sirida ko'priksimasining yelkasidagi R_1 qarshiligi kamayadi, ikkinchi yelkadagi R_2 esa oshadi. Bunday datchiklar – differentsial datchiklar deyiladi. Ko'mir datchiklarining afzalliklari: sodda, o'lchamlari kichik, arzon.

Kamchiliklari: qarshilikning nostabilligi, gisterezis mavjudligi va tavsifnomasi nochiziqliligi. Oddiy ko'mir datchikning statik tavsifnomasidan ko'rinib turibdiki (6-rasm, b) nochiziqlilik kichik kuchlar chegarasiga to'g'ri keladi. Differentsial datchiklarning statik tavsifnomasi esa chiziqlilikka yaqin.

Tenzometrik datchiklar

Tenzometrik datchiklarning ish printsipti tenzoeffekt hodisasiga asoslangan bo'ladi, ya'ni elastik deformatsiya ta'sirida uning qarshiligi o'zgaradi. Tenzodatchik ma'lum usulda o'ralgan va ikkala tomonidan maxsus plenka yopishtirilgan yupqa simdan iborat. Tenzodatchik deformatsiyasi nazorat qilinayotgan detalga maxsus yelim bilan puxta yopishtiriladi. Detailning deformatsiyasi natijasida simning geometrik o'lchamlari o'zgarilib qarshiligi o'zgaradi. Tenzometrik datchiklarning tavsifnomasi chiziqli bo'ladi va shu sababli ularning sezgirligi deyarli o'zgarmaydi.

Tenzodatchiklarning afzalliklari: ular juda sodda, ixcham va arzon. Kamchiliklari: kichik sezgirlik, o'lchov natijalari haroratga bog'liq. Sanoatda 3 xil tenzometrik datchiklar chiqariladi: simli, qog'oz (2PKB turida) va plyonka (2 PKB turida) asosida; folgali. (2FPPK turi) va yarim o'tkazgichli (KTD, KTDM, KTE turlari). Simli tenzorezistorlar uchun nominal ish toki $I_n = 0,5 \text{ A}$ tashkil etadi.



7-rasm. Tenzometrik datchikning tuzilishi va tavsifnomasi

Elektromagnitli va sig'im datchiklari

Induktiv va transformator datchiklari

Elektromagnitli datchiklar sodda tuzilishi va puxtaligi bilan avtomatika tizimlarida keng miqyosda qo'llanib kelinmoqda. Elektromagnitli datchiklar kirish kattaligini o'zgarishi bo'yicha induktiv, transformator va magnitoelastik turlariga bo'linadi.


Induktiv va transformator datchiklarning (7 - rasm) ish printsipti po'lat yakorning holati o'zgarilganda po'lat o'zakli cho'lg'arning induktivligi o'zgarishiga asoslangan.

Induktiv va transformator datchiklari o'zgaruvchan tok zanjirlarida ishlab, mikronning o'ndan bir qismidan to bir necha santimetr gacha bo'lgan harakatlarni o'lchaydi va ularni nazorat qiladi.

Transformator datchiklarda (8- rasm) kirish signali plunjer yoki yakorning harakati bo'lib, chiqish signali esa $I_1 - I_2$ toklarning geometrik ayirmasi bo'ladi. Yakorning neytral holatida $I_1 = I_2$, demak o'lchov asbobida tok yo'qligini bilib olinadi. Yakorning holati o'zgarilishi bilan cho'lg'amlarning induktivligi o'zgaradi va I_1, I_2 toklarining muvozanatlari o'zgaradi. Natijada o'lchov asbobidan $\Delta I = I_1 - I_2$ toki oqib o'tadi. Ushbu tokning fazasi yakorning harakatlanish yo'nalishiga bog'liq bo'ladi.

Transformator datchikning sxemasi 8.d – rasmda ko'rsatilgan. Bu yerda kirish kattaligi burchak harakati α bo'lib, chiqish kattaligi esa ikkilamchi asboddagi tok bo'ladi. Yakorning neytral holatida, ya'ni $\alpha_1 = \alpha_2$ o'rta o'zakda EYuK hosil bo'lmaydi, chunki chetlardagi cho'lg'amlar qarama-qarshi yo'nalishda o'ralgan va ular o'zaro teng. Yakorning harakatlanishi bilan cho'lg'amlardan birining magnit qarshiligi kamayadi, ikkinchisining esa oshib ketadi. Natijada o'rta cho'lg'anda EYuK hosil bo'lib, ikkilamchi asboddan tok oqib o'ta boshlaydi.


Ko'rib chiqilgan printsipti asosida amalda ko'pgina o'lchov asboblari, jumladan misol sifatida, induktiv manometr shu printsipti asosida ishlaydi.



Induktiv va transformator datchiklarning sxemalari va ularning tavsifnomalari

Sig'im datchiklari va ularning qo'llanish sohalari

Sig'im datchiklarida xilma-xil kirish kattaliklari (chiziqli va burchak harakatlarni, mexanik kuchlanish, sath va kabilar) sig'im o'zgarilishiga aylantiriladi. Amalda sig'im datchiklari kondensatorlardan yasaladi. O'lchaydigan kattaliklariga qarab sig'im datchiklari (9-rasm) yuzasi zgaruvchan, oraliq masofasi o'zgaruvchan va dielektrik singdiruvchanligi o'zgaruvchan turlariga bo'linadi.



Sig'im datchiklarining turlari

Sig'im datchiklarining afzalliklari: soddaligi, ixchamligi, arzonligi va kichik inertsionligi.


Kamchiliklari: chiqish signalining quvvati pastligi, o'lchov natijalari atrof muhit ko'rsatkichlariga bog'liqligi, ulaydigan simlar va qurilma metall qismlarning sig'implari turlicha tahsir qilib, detallarning o'zaro joylashishiga bog'liq.



O'lchash aniqligini va sezgirligini oshirish maqsadida sig'im datchiklari ko'priksimon sxemalarga ulanadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan printsip asosida sig'im manometrlari ishlaydi

O'lchanavotgan bosim asboba quvur 1 orqali uzatilib, membrana 2 orqali qabul qilinadi. Membrana o'z navbatida plastina 3 bilan kondensatorni hosil qiladi. Kondensator sxemaga klemma 4 lar yordamida ulanadi.

Bosim tahsirida membrana egilib plastinaga yaqinlashadi va kondensatorning sig'imini o'zgartiradi. SHunday qilib kondensator sig'imi o'lchanavotgan bosimga proporsionaldir.



Sig'im manometrining sxemasi.



Faollashtiruvchi savollar

1. Rezistiv datchiklar qanday kattaliklarni nazorat qiladi?
2. Rezistiv datchiklar turkumida qanday datchiklar bor.
3. Potentsiometrik datchik qanday printsiptda ishlaydi?
4. Potentsiometrik datchikning statik tavsifnomasi qanday to'g'rilanadi?
5. Potentsiometrik datchikning qanday afzallik va kamchiliklari mavjud.
6. Ko'mir (kontaktli) datchik qanday printsiptda ishlaydi?
7. Tenzometrik datchik qanday printsiptda ishlaydi?
8. Tenzometrik datchikning qanday afzallik va kamchiliklari mavjud.
9. Elektromegnitli datchiklar qaysi xususiyatiga qarab turlarga bo'linadi va qay printsiptda ishlaydi?
10. Transformator datchiklar qaysi printsiptda ishlaydi va parametrlari qanday o'zgartiriladi?
11. Sig'im datchiklari qaysi printsiptda ishlaydi?
12. Sig'im datchiklarining turlarini ayting?
13. Sig'im manometri qay tartibda ishlaydi?

10-mavzu: Avtomatikaning nazorat datchiklari

REJA:

1. Suyuqlik tanometrik bimetallic va dilotometrik xarorat datchiklari.
2. Termoparalar
3. Satx, bosim, datchiklar tezligi datchiklari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Suyuqlik, manometrik bimetallic va dilotometrik xarorat datchiklari bilan tanishadi;
Termoparalar xaqida tushunchaga ega bo'ladi;
Suyuqlik datchiklari xaqida tushunchaga ega bo'ladi;
Bosim, burchak tezligi datchiklari bilan tanishadi

Tayanch so'z va iboralar


Suyuqlik xarorat datchiklari, manometrik xarorat datchiklari, bimetallic xarorat datchiklari, dilotometrik xarorat datchiklari, termoparalar, sath datchiklari, bosim datchiklari, burchak tezligi datchiklari.

Suyuqlik datchiklar

Suyuqlik datchiklari -2000°S dan $+7500^{\circ}\text{C}$ gacha oralig'idagi haroratni o'lchashda ishlatiladi. Shisha termometrlarning ishlatish usuli sodda, aniqligi etarli darajada yuqori va arzon bo'lganligi sababli sanoatda keng tarqalgan.

Suyuqlikli termometrlarning ishlash printsipti termometr suyuqligining hajmi harorat ko'tarilishi yoki pasayishi tufayli o'zgarilishiga asoslangan. Shishali termometrning suyuqligi sifatida simob, toluol, etil spirti, efir va boshqalar ishlatiladi.

Suyuqlik datchiklarning turlari



a – kontaktli; б – aktiv qarshilikli; в – induktiv qarshilikli; r – sigim qarshilikli; д – nurlar intensivligi.

Dilatometrik va bimetallik datchiklar


- **Dilatometrik va bimetallik** datchiklarning ishlash prinsipi xarorat o'zgarishidagi qattiq jism chiziqli miqdorining o'zgarishiga asoslangan. Xarorat o'zgarishiga bog'liq bo'lgan qattiq jism chiziqli miqdorining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi:

$$L_t = L_0(1 + B \cdot t), \quad (2.15)$$


bu yerda: L_t — xaroratdagi qattiq jismning uzunligi;

L_0 — shu jismning 00S dagi uzunligi

B — chiziqli kengayishning o'rtacha koeffitsiyenti (00S dan t0S gacha bo'lgan xaroratlar intervalida).



Dilatometrik va bimetallic datchiklarning sxemasi




a)-Dilatometrik termometr, b)- bimetallic termometr b)- yassi plastinkali bimetallic termometr.

Bimetallik termometrlar


Bimetallik termometrlarning sezgir elementi ikki kavsharlangan plastinkadan tayyorlangan prujinadan iborat. Bu plastinkalarning issiqlikdan kengayish harorat koeffitsienti turlicha bo'lgan metallardan tayyorlanadi. Haroratning o'zgarishi plastinkalarning uzayishiga olib keladi. Plastinkalar bir-biriga nisbatan siljiy olmaganligi sababli prujina issiqlikdan kengayish harorat koeffitsienti kam bo'lgan plastinka tomon og'adi. Plastinkalar uzayishining harorat koeffitsienti farqi qancha katta bo'lsa, prujining harorat o'zgarishidagi og'ishi shuncha ko'p bo'ladi.

Manometrik datchiklarning turlari



а - мембранали, в - сиффонли, с - манометрик.

Satx datchiklari




Satx datchiklari va ularning ish printsiplari

Qalqovichli datchiklar suyuqlik sathi o'zgarishini qabul qiladigan qalqovichdan va chidish elektr signaliga o'zgartiradigan elementdan tashkil topgan bo'ladi. O'zgartirgichlar sifatida aktiv yoki induktiv datchiklar ishlatiladi. Engil qalqovichli (1) bilan potentsiometrik datchikning (3) bog'lanishi blok (4) orqali o'tkazilgan tros (2) yordamida amalga oshiriladi. Qalqovichning og'irligi yuk (5) bilan moslashtirib boriladi. Suyuqlik sathining xar qanday o'zgarishi sath o'lchov birligiga moslangan ikkilamchi o'lchov asbobidagi (UA) kuchlanish o'zgarishiga proporsional ravishda ta'sir qiladi.


Gidrostatik datchiklarda suyuqlik sathini nazorat qilish maxsus tsilindrik idishdagi suyuqlikning gidrostatik og'irligi o'zgarishiga asoslangan bo'ladi (b-rasm). Suyuqliq bosimi sathini (h) proporsional bo'lib membranani (1) egilishga ta'sir qiladi va maxsus ko'mir ustun (2) yordamida elektr signalga o'zgartiriladi. Bu signalni sath birligiga mos ravishda o'lchov asbobi (P) yordamida o'lchab boriladi. Qalqovichli (poplovikli) va gidrostatik datchiklar suyuqlikning sathi bo'yicha emas, aslida uning massasi bo'yicha o'lchaydi, shuning uchun haroratning va suyuqlik tarkibining o'zgarishi natijasida o'lchov xatoliklari kelib chiqadi.

Bosim datchiklari

- Qishloq va suv xo'jaligida qo'llaniladigan bosim datchiklarining turlari ko'p bo'lib, ular suyuqlik va gazlar bosimini o'lchash uchun xizmat qiladi.
- Bosim datchiklarining ish printsiplari bosim kuchini mexanik kuchlarga aylantirib berish printsipliga asoslangan bo'ladi.
- Bunday datchiklarning qabul qiluvchi elementlari o'lchanayotgan bosim ta'sirida bo'ladi. Yuqori bosimlarni o'lchashda bosim ta'sirida o'tkazgichning elektr qarshiligi o'zgarishi hodisasiga asoslangan datchiklar qo'llaniladi.



Suyuqlik bosim datchiklarning turlari




a) - U-shakili, b) - qo'ng'iroqchali, v) - gidrostatik, g) - membrali, d) – silfonli, ye) – manomntrik trubkali .

Sarf datchiklari

- Sarf datchiklarini qo'llashda turli xil fizikaviy printsiplardan foydalaniladi. Uzluksiz oquvchan suyuqliklar va gazlarning sarfini aniqlashning eng ko'p tarqalgani drosselli qurilmalarda bosimning o'zgarishi bo'yicha o'lchash usuli hisoblanadi
- Drosselli qurilmalar sifatida diafragmalar, sopla va Venturi trubkalari qo'llaniladi.

Sarf datchiklarining turlari.



a) – drossel-diafragmali; b) – vertikal qanotli tezlik, v) – spiral-qanotchali

Faollashtirish savollari

- Texnologik jarayonlarda haroratni o'lchashning nima zarurati bor.
- Harorat datchiklari bo'yicha turkumlashni aytib bering.

3. Suyuqlik datchiklarining ishlash printsipli nimaga bog'liq.
4. Dilatometrik va bimetallic datchiklari qanday ishlaydi?
5. Dilatometrik datchiklar qanday va qaysi materiallardan tayyorlanadi?
6. Bimetallic datchiklar dilatometrik datchiklardan nimasi bilan farqlanadi?
7. Manometrik datchiklarning turlarini ayting.
8. Manometrik termometrlar ish moddasi jihatidan qaysi turlarga bo'linadi?
9. Termovarshiliklar haroratni qaysi printsipta o'lchaydi?
10. Termovarshilik termometrlarini tayyorlashga qanday talablar qo'yiladi?
11. Termovarshiliklar qanday materiallardan tayyorlanadi?
12. Sath datchiklarining qanday turlarini bilasiz?
13. Qalqovichli datchiklar qanday ishlaydi. Misol keltiring.
14. "Rus" sath o'lchagichini tarkibiy sxemasi bo'yicha tushuntirib bering.
15. Bosim datchiklarining turlarini ayting.
16. Sarf datchiklari qanday ishlaydi.

11-Ma'ruza: Avtomatika relelari va ularning klassifikatsiyasi

REJA:

1. Elektromagnit, magnitoelektrik, elektrodinamik, elektroissiklik, ion, ferromagnit va elektron relelar, ularning ish printsiplari.
2. Relelarning asosiy ko'rsatkichlari.
3. Relelarning tavsifnomalari va ekspluatatsion kattaliklari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari)

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- elektromagnit relelari bilan tanishadi;
- magnitoelektrik relelari haqidagi tushunchaga ega bo'ladi;
- elektrodinamik relelari haqidagi tushunchaga ega bo'ladi;
- elektroissiklik relelar haqidagi tushunchaga ega bo'ladi;
- ion, ferromagnit va elektron relelar haqidagi tushunchaga ega bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Elektromagnit relelar, magnitoelektrik relelar, elektrodinamik relelar, elektroissiklik relelar, ion relelar, ferromagnit relelar, elektron relelar.

Ilova 1

Elektrik relelarning turlari

Elektromagnit relelarida cho'lg'amdan o'tayotgan tok ta'sirida magnit maydon hosil bo'lib yakorning va kontaktlarning holati o'zgartiriladi.

Magnitoelektrik relelarda cho'lg'am ramka ko'rinishida bajarilib o'zgaras magnit maydonida joylashtirilgan. Cho'lg'amdan tok o'tayotganda ramka prujinani kuchini engib harakatga keladi va kontaktlarning holatini o'zgartiradi.

Elektrodinamik rele ish printsiplari buyicha magnitoelektrik relelarga o'xshash lekin undagi magnit maydoni maxsus uyg'otish cho'lg'ami bilan hosil etiladi.

Induktsion relening ish printsiplari relening cho'lg'ami hosil qiladigan o'zgaruvchan magnit oqimi va harakatlanuvchan diskda hosil bo'ladigan tok o'zaro ta'siriga asoslangan.

Elektrik relelarning turlari


Ferromagnit relelar magnit kattaliklari (magnit oqimi, magnit maydoni kuchlanganligi) yoki ferrodinamik materiallarining magnit tavsifnomalari o'zgarilishi ta'sirida ishlaydi.

Elektron va ion relelari bevosita kuchlanish yoki tok kuchi natijasida hosil bo'ladigan sakrashsimon o'zgarishlar ta'sirida ishlaydi.

Elektroissiqlik relelari harorat ta'sirida ishlaydi. Ularning ish printsiplari yuqorida ko'rib chiqilgan bimetallic va dilatometrik datchiklarning ish printsiplari o'xshash bo'ladi.

Rezonans relelari ish printsiplari elektrik tebranish tizimlarda hosil bo'ladigan rezonansga asoslangan.





Relarlarning asosiy ko'rsatkichlari

Ishga tushish ko'rsatkichi - relslar ishga tushish paytidaagi kirish kattaligining eng kichik kiymati - $X_{i.t.}$.

Kuyib yuborish ko'rsatkichi-relsning oldingi holatiga qaytishi uchun zarur bo'lgan kirish kattaligining eng katta kiymati - $X_{k.y.}$.

Qaytish koefitsienti - $K_k = X_{k.y.} / X_{i.t.}$ nisbati.

Ishchi parametri - rele uzoq vaqt ishlatish uchun zarur bo'lgan kirish kattaligining kiymati (nominal) rejimidaagi - $X_{i.sh.}$.

Ishchi parametri - rele uzoq vaqt ishlatish uchun zarur bo'lgan kirish kattaligining kiymati (nominal) rejimidaagi - $X_{i.sh.}$.

Zaxira (zapas) koefitsienti:

ishga tushishi

kuyib yuborish

Kuchaytirish koefitsienti - kontaktlardagi quvvatning kirish signaliidagi quvvatga nisbati:

$$K_k = \frac{P_{kont}}{P_{i.sh.}}$$

Relslarning yana bir muxim parametrlaridan biri - ularning ishga tushish va qo'yib yuborish vaqtlari.

Cho'lg'amga kuchlanish berilganda u shu vaqtning o'zida ishga tushmasdan, balki bir oz vaqtdan keyin ishga tushadi. Ushbu $T_{i.t}$ vaqt ishga tushish vaqti deb ataladi.

Kuchlanish cho'lg'amidan ajratilganda ham qo'yib yuborish ma'lum bir vaqt ichida amalga oshadi - T_k . Bu vaqt kuyib yuborish vaqti deyiladi.

Ishga tushirish vaqti bo'yicha relslarning turlari

Kuchlanish ajratilishi bilan relening toki T gacha kamayadi. Bu vaqtda yakor o'zining eski holatiga qaytadi. Demak relening ajralishi T vaqt mobaynida amalga oshadi.

